

DAJJOL HAQIDA NIMA BILASIZ?

Toshkent
«Movarounnahr»
2005

Tarjimon: Abdug'afur Sodir

Muharrir: Abdug'afur Iskandar

MUQADDIMA

Olamlar tarbiyatkunandasi Allohga hamdu sanolar bo'lsin. Uning rasuli Muhammadga salovot va salomlar yog'ilsin. U zoti sharif Parvardigorining vahiyini odamlarga yetkazdilar, ummatni Dajjoldan ogohlantirdilar, uning xatar va fitnalaridon omonda bo'lish yo'llarini ko'rsatdilar.

Ammo ba'd: Dajjolning ishi o'ta xatarlidir. Shuning uchun har bir payg'ambar o'z ummatini uning yomonligidan ogohlantirgan. Demakki, har bir millat uning insoniyat boshiga solajak kirdikorlaridan xabardor bo'lgan.

Xo'sh, Dajjol kim o'zi? Biz qo'lingizdagi risolada Alloh qodir etganicha bu la'nati maxluq tavsifini keltirishga harakat qildik. Avvalo shuni aytib o'tishim kerakki, bu la'natining dunyosiga yaqinlashishga har qancha harakat qilmay, qurbim yetmadi. Chunki uning dunyosi Allohning la'natiga giriftor bo'lgan qavmning dunyosi bilan bog'liq ekan. Ha, ularning olami yomonlik, faqat yomonlikdan iborat bo'lgan olam.

U qavmning tarixiga nazar tashlagan odam ularning Alloh dinini o'zgartirib, unga tuhmat va bo'hton gaplarni qo'shib yuborganlariga guvoh bo'ladi.

Shuningdek, ularning uzoq o'tmishdan to hozirgi zamonamizga qadar hiyonat, axdu vafoni buzish va boshka jinoyatlar bilan mashhur bo'lganini ko'radi. Dajjolning fitna-fasodlariga zamin hozirlaydiganlar ham ular. Shuning uchun ham Dajjolning tarixini o'rganish juda qiyin. Lekin yaqin va uzoq mavqelardan unga ishora qilishimiz, payg'ambarlarning sunnatlariga ergashib, odamlarni undan ogohlantirishimiz zarur. Biz bu kitobda Dajjol xaqida sahih hadislarni keltirdik, shular asosida uning suratini chizishga harakat qildik. Dajjol chiqishidan oldin bo'ladigan alomatlar, uning qayerdan chiqishi, qayerga yetib borishi, qaysi shaharlarga kira olmasligi, nimaga da'vat qilishi, uning fitnalari, Masih Iso ibn Maryam bilan uchrashuvi va tobe'larining takdiri haqida hikoya qilamiz. E'tiborga loyiq joyi shuki, Dajjol haqidagi gaplar hech bir asrda odamlarni befarq qoldirmagan. har bir zamonda odamlar Dajjol bilan o'z zamonlari o'rtasidagi bog'liqlikni topishga harakat qilganlar. Bizning davrimizda ham "uchar tarekalar"ni Dajjol bilan bog'lashga harakat qilayotganlar chiqyapti. Albatta, bu dalil-xujjatsiz bir ijtihod, xolos. Lekin, sahih xadislarda kelganidek, Dajjolning g'ayrioddiy

ishlari borligini inkor qilmaymiz. Bu g'ayrioddiylik zamonaviy texnologiyaning eng yangi yutuqlari bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin. Yana Alloh bilguvchiroq.

Amal sahifalari ro'para qilinadigan kunda bu kitobimizni sahifamizga yozishini Allohdan so'raymiz. Omin.

DAJJOL HAQIDAGI SAHIH HADISLAR

Dajjolning oxir zamonda chiqishi Rasululloh sollallohu alayhi va sallamdan rivoyat qilingan sahih hadislarda aniq ravshan bayon etilgan.

Birinchi hadis. Huzayfa roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: "Dajjolning chap ko'zi g'ilay, sochi qalin. Uning jannati va do'zaxi bor. Aslida, do'zaxi jannat, jannati esa do'zaxdir".

Yana Huzayfadan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi va sallam shunday dedilar: "Men Dajjolda bo'ladigan narsalarni uning o'zidan ham yaxshiroq bilaman. Uning oqib turuvchi ikki anhuri bo'lib, biri ko'zga oppoq suv bo'lib ko'rinsa, ikkinchisi alangalanib turgan olov bo'lib. Agar biron kishi unga duch kelsa, olov bo'lib ko'rinayotgan anhora kelsin. Ko'zini yumib, boshini egsin va undan ichsin. Haqiqatda u sovuq suv bo'ladi. Dajjolning ko'zi o'chib ketgan bo'lib, ustida ortiqcha eti bor. Ikki ko'zi o'rtasiga "kofir" deb yozilgan. O'qishni bilgan-bilmagan har bir mo'min uni o'qiy oladi".

Ikkinchi hadis. Abdulloh ibn Umar roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bir kuni odamlar orasida Masihi Dajjolni zikr qilib shunday dedilar: "Alloh g'ilay emas. Bilib qo'yinglar, Masihi Dajjolning o'ng ko'zi g'ilay bo'lib, bo'rtib chiqqan uzumga o'xshaydi".

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam yana aytdilar: "Kechasi tushimda Ka'baning yonida turgan emishman. Shu vaqt bug'doy rang bir kishini ko'rdim. U siz ko'rgan bug'doy rang kishilarning eng chiroylisi edi. Sochi ikki yelkasiga tushgan, taralgan. (Boshidan suv tomib turardi.) Qo'llarini ikki kishining yelkasiga qo'yib, Baytullohni tavof qilar edi. Men: "Bu kishi kim?" deb so'radim. "Masih Iso ibn Maryam", deb javob berishdi. Yana bir kishini ko'rdim. Sochi qisqa va jingalak. O'ng ko'zi g'ilay. Men ko'rgan odamlar ichida Ibn Qatanga juda o'xshab ketadi. Qo'llarini ikki kishining yelkasiga qo'yib, Baytullohni tavof qilardi. "Bu kim?" deb so'radim. "Masihi Dajjol", deb javob berishdi.

Uchinchi hadis. Ibn Abbos roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: "Dajjol — g'ilay, sochi jingalak, rangi oppoq, boshi go'yoki daraxt shoxlariga o'xshaydi. U Abdul Uzzo ibn Qatan al-Xuzoiyga juda o'xshab ketadi. Haqiqatda halok bo'luvchilar (o'sha vaqtda) halok bo'ladi. U g'ilaydir. Alloh g'ilay emas".

To'rtinchi hadis. Abu Hurayra shunday rivoyat qiladi: "Rasululloh sollallohu alayhi va sallam dedilar: "Ammo zalolatdagi Masihga (Dajjolga) kelsak, uning ko'zi g'ilay, peshonasi keng, burun teshigi katta, Abdul Uzzoga o'xshab qomati ozgina egilgan". "Ey Rasululloh sollallohu alayhi va sallam! Uning menga o'xshashi menga zarar qiladimi?" deb so'radi shunda Ibn Qatan: "Yo'q. Sen musulmonsan. U kofir", deb javob berdilar Payg'ambar alayhissalom".

Beshinchi hadis. Abu Ka' b aytadi: "Nabiy sollallohu alayhi va sallam huzurlarida Dajjol tilga olindi (yoki Nabiy sollallohu alayhi va sallam Dajjolni esga oldilar), so'ng u zot dedilar: "Ko'zlarining biri yashil shishaga o'xshaydi Allohdan qabr azobidan panoh berishini so'raymiz".

Oltinchi hadis. Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: "Dajjol mashriqdan, Xuroson degan yerdan chiqadi. Yuzlari teri qoplangan sovutga o'xshaydigan guruhlar unga ergashadi".

Yettinchi hadis. Said ibn Jumhon Safniyadan rivoyat qiladi: "Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bizga xutba o'qib, shunday dedilar: Har bir nabiy ummatini Dajjoldan ogohlantargan. Ogoh bo'linglar, uning chap ko'zi g'ilay. O'ng ko'zining ustida ortiqcha eti bor. Ikki ko'zining o'rtasida "kofir" deb yozilgan. U bilan ikki vodiy chiqadi. Biri jannat, boshqasi do'zax. Aslida, uning do'zaxi jannat, jannati do'zax bo'ladi. Dajjol odamlarga: "Men sizlarning rabbingiz emasmanmi? Tiriltiraman va o'ldiraman", deydi. U bilan ikki farishta bo'lib, ular ikkita payg'ambarga o'xshaydilar. Men u payg'ambarlarning ismini, otalarining ismini ham bilaman. Xohlasam, ularning ismini aytishim mumkin. Biri Dajjolning o'ng tomonida, boshqasi chap tomonida bo'ladi. U: "Men sizlarning rabbingiz emasmanmi? Tiriltiraman va o'ldiraman", deganida, farishtalardan biri aytadi: "Yolg'on aygding". Lekin sherigidan boshqa bironta inson uning (gapini) eshitmaydi. Ikkinchisi (birinchi faryashtaning gapini tasdiqlab): "Rost aytding", deydi. Mana shu narsa (odamlarga) fitna bo'ladi. So'ngra Dajjol yo'lida davom etib, Madinaga yetib keladi. "Bu o'sha kishining (ya'ni, Muhammad sollallohu alayhi va sallamning) shahrimi?" deydi. Unga Madinaga kirishga ruxsat berilmaydi. So'ng Shomga yetib keladi. Alloh uni Afiq dovonida halok qiladi".

Yuqoridagi ma'nolarni ifodalaydigan, har xil rivoyatlar bilan kelgan boshqa sahih hadislar ham bor. Inshaalloh o'rni bilan, la'nati Dajjol haqidagi suhbatimiz asnosida o'sha hadislarini ham keltirib o'tamiz.

DAJJOLNING SIFATI

(Suratini chizishga urinish)

Uning jussasi juda katta bo'ladi. Xudolikni da'vo qiladi. Shuning uchun Dajjolning gavdasi katta bo'lishiga qaramay, ojizligi va ko'zidagi nuqsonga ishora qilib, Nabiy sollallohu alayhi va sallam: "Alloh g'ilay emas", deb aytgan edilar.

Dajjol - inson bolasi. U jin ham, farishta ham emas. Demak, unda er kishilarniki kabi gavda va qomat bor. Odamlar singari yeydi, ichadi, uxlaydi, bedor bo'ladi, hojatga boradi, yer yuzida yuradi va ulov minadi. Xachirining ikki qulog'i o'rtasidagi masofa qirq ziro' keladi. Nabiy sollallohu alayhi va sallam Dajjoli shunday sifatlaganlarki, biz uni ko'zimiz bilan ko'rib turgandekmiz. Umumiy hadislarda kelgan vasfga ko'ra, Dajjol — jussasi bahaybat, bo'yi baland, semiz kishi. Uning kalta, quyuq va jingalak sochi bo'lib, qomati ozgina egilgan. Rangi oq, ikki ko'zi o'rtasiga "kofir" deb yozilgan. Bu yozuvni o'qishni biladigan va bilmaydigan har bir mo'min o'qiy oladi. Ikki ko'zi g'ilay. Lekin o'ng ko'zi o'ta g'ilay bo'lganidan, nursiz bo'lib ko'rinadi. Chap ko'zinning ustida ortiqcha eti bor. (U ko'zni qoplab turadigan bir parcha teri yoki ko'zning chetidan o'sib chiqqan

go'shtga o'xshaydi.) Chap ko'zi ham g'ilay. Demak, u yaxshi ko'ra olmaydi. Deyarlik ko'r yoki ko'rga yaqin. Shunday bo'lishiga qaramasdan, u yer yuzini aylanib chiqadi va hamma yoqni fasodga to'ldiradi.

Dajjoliing taxminiy surati shu. Uning yomonligidan Alloh asrasin.

DAJJOL CHIQISHI ALOMATLARI

Dajjol to'satdan, biron-bir belgisiz chiqib qolmaydi. Chunki uning chiqishi juda xatarli bo'lib, qiyomatning yaqinlashganini va yerning umri tugab borayotganini bildiradi. Uning chiqishi katta fitna bo'ladi. Juda ko'p insonlar Dajjol makrining qurboniga aylanishadi, haq bilan nohaq, aralashib, insonlarning dinlari ham buzilib ketadi. Shuningdek, bu la'nati ilohlikni da'vo qilib, odamlarga: "Men sizlarning rabbingizman", deydi. Shuning uchun uning chiqishi tasodif bo'lmaydi. Balki oldin alomat va belgilari zohir bo'ladi. Huzayfa ibn Yamon roziyallohu anhudan rivoyat qilingan xabarda u kishi shunday deganlar: "Madinada devor soyasida o'tirgan edik. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam xonalarida edilar. So'ng oldimizga chiqib dedilar: "Nima qilib o'tiribsizlar?" Biz aytdik: Gaplashib o'tiribmiz".

"Nima haqida gaplashyapsizlar?"

"Qiyomat haqida".

"Sizlar o'nta alomatni ko'rmaguningizcha qiyomat bo'lmaydi. Avvalgisi quyoshning mag'ribdan chiqishi, so'ngra tutun, so'ngra Dajjol, so'ngra yer hayvoni, so'ngra uch marta yer yutishi, mashriqda bir marta, Arab jazirasida bir marta (uchinchisi aytilmagan), Isoning chiqishi. Ya'juj va Ma'jujning chiqishi. Oxirgi alomat - Yamanda Adan qa'ridan chiqadigan olov. U bironta odamni qoldirmay mahsharga haydab boradi" (Sahih hadis. Muslim rivoyati).

Shu ma'noda Huzayfadan rivoyat qilingan boshqa hadis ham bor: "Rasululloh sollallohu alayhi va sallam hujralaridan chiqdilar. Biz qiyomat haqida gaplashib o'tirgan edik. "O'nta alomatni ko'rmaguningizcha qiyomat qoim bo'lmaydi, - dedilar. - quyoshning mag'ribdan chiqishi, Dajjol, tutun, yer hayvoni, Ya'juj va Ma'juj, Iso ibn Maryamning chiqishi, uch marta yer yutiish - mashriqda, mag'ribda, Arab jazirasida, Adan qa'ridan chiqadigan olov. U odamlarni mahsharga haydaydi. Odamlar tunda uxlasalar ham, kunduz kuni mizg'isalar ham, olov ular bilan birga bo'ladi (ya'ni, ulardan ajramaydi)" (Muslim rivoyati).

Imom Qurtubiy aytadi: "Yuqoridagi hadisda qiyomat alomatlari umumiy ravishda, tartibsiz keltirilgan. Birinchi hadisda esa "so'ngra" lafzini ishlatish orqali tartib ifodalangan. Lekin Huzayfaning yana boshqa hadisida tartib aniq bayon qilingan: "Rasululloh sollallohu alayhi va sallam hujralarida edilar. Biz pastroqda o'tirgan edik. Bizning oldimizga chiqib: "Nimani eslayapsizlar?" deb so'radilar. «Qiyomatni», javob berdik. "O'nta alomatni ko'rmaguningizcha qiyomat bo'lmaydi, — deb (sanay boshladilar): — Mashriqdagi yer yutish, mag'ribdagi yer yutish, Arab jazirasidagi yer yutish, tutun, Dajjol, yer hayvoni, Ya'juj va Ma'juj, quyoshning mag'ribdan chiqishi, Adan qa'ridan chiqadigan olov. U odamlarning orqasidan (quvib) yuradi" ("Tazkira" kitobidan).

Hadisning ba'zi roviylari: "O'ninchi alomat — Isoning tushishi", desalar, boshqalari: "Odamlarni dengiz tomon haydaydigan shamol", deyдилar (Muslim rivoyati). Bu alomatlarining eng avvalgisi uch marta yer yutishi. Ba'zisi Nabiy sollallohu alayhi va sallam zamonlarida ro'y bergan. Abul-Faraj ibn Javziy shunday hikoya qiladi: "Iroqda juda qattiq zilzila va yer yutish sodir bo'ldi. Bu ofat tufayli ko'p xaloyiqlar halok bo'ldi". Qurtubiy aytadi: "Ustozlarimizning biridan eshitgan edik. Andalusning sharqidagi Qatartanda degan qishloqda zilzila bo'lgan va tog' qulab qishloqni butunlay bosib qolgan. Do'stlarimizning biri xabar berishicha, Tarsah qishlog'ida ham qattiq yer silkinishi ro'y bergan. Uylarning devor va shiftlari qulab tushgan. qishloq ahlidan juda oz sonli kishilar salomat qolganlar".

Hadisda yer xayvoni Ya'juj va Ma'jujdan oldin chiqishi aytilgan. Aslida qiyomatning birinchi alomati Dajjolning chiqishidir, so'ngra Iso ibn Maryam tushadi. Keyin Ya'juj va Ma'juj chiqadi Alloh taolo ularni bo'yniga "nag'af" qurtini tushirib, halok qilgach, payg'ambari Iso nbn Maryam sollallohu alayhi va sallamning ham jonini oladi. Iso alayhissalomdan keyin, odamlar sekin-asta islom dinini unutilib boradilar. Insonlar o'zlarining avvalgi johiliy odatlariga qayta boshlaydilar. Har safar Alloh bandalariga ogohlantiruvchi (rasul) yuborib, hujjat qoim qilgandan keyin ro'y berganidek, odamlar yana kufr va fosiqlikka qaytadilar. Shunda Alloh yerdan bir hayvonini chiqaradi. U (ya'ni, yer hayvoni) mo'minni kofirdan ajratadi. Kofirlarni kufrdan, fosiqlarni fisqu fujurdan qaytaradi. So'ngra yer hayvoni g'oyib bo'ladi. Odamlarga esa ozgina muhlat beriladi. Agar ular o'z tug'yonlarida davom etsalar, quyosh mag'ribdan chiqadi. Bundan keyin kofir va fosiqlarning tavbasi qabul bo'lmaydi. Jinlar va insonlardan ibodat mas'udiyati bekor bo'ladi. Chunki Alloh taolo aytadi:

وَمَا خَلَقْتُ الْجِنَّ وَالْإِنْسَ إِلَّا لِيَعْبُدُونِ

"Men jin va insni faqat O'zimga ibodat qilishlari uchungina yaratdim" (Vaz-zoriyot, 56).

Agar ibodat qilish masuliyati ulardan soqit bo'lsa, yer yuzida ularning turishlari ma'nosi qolmaydi. Ulamolar shunday deb aytganlar. (Vallohu a'lam.)

O'n alomatdan biri bo'lgan tutun haqida Ali, Ibn Umar, Abu Hurayra, Ibn Abbos, Ibn Abu Mulayka va Hasaya: "Alloh taoloning ushbu:

فَأَرْتَقِبْ يَوْمَ تَأْتِي السَّمَاءُ بِدُحَانٍ مُّبِينٍ ﴿١٠﴾ يَغْشَى النَّاسَ هَذَا عَذَابٌ أَلِيمٌ ﴿١١﴾

"Bas, (ey Muhammad), siz osmon ochiq (ya'ni barchaga ko'rinadigan) tutunni keltiradigan Kunga ko'z tuting! U (tutun barcha) odamlarni o'rab olur. Bu alamli azobdir" (Duxon, 10-11), oyatida kelgan tutun o'sha alomatlardan biridir", deb aytganlari rivoyat qilingan. Yer hayvoni haqida Alloh shunday deydi:

وَالَّذِي أَطْمَعُ أَنْ يَغْفِرَ لِي خَطِيئَتِي يَوْمَ الدِّينِ ﴿١٧﴾

"Qachon (kofirlarning) ustiga so'z-azob tushganda (ya'ni, qiyomat yaqinlashganida) Biz ular uchun yerdan jonivor chiqarurmiz. U ularga odamlar Bizning oyatlarimizga ishonmaydigan bo'lib qolganlari haqida so'zlar" (Naml, 82).

Mufasssirlar yer hayvonini shunday ta'riflaydilar: "U juda bahaybat bo'lib, Safo tog'ining yorig'idan chiqadi. Yonidan o'tgan har bir kishi mo'min bo'lsa yuzi yorishib, peshonasida "mo'min" degan yozuv paydo buladi. Kofir bo'lsa, yuzi qorayadi va peshonasiga "kofir" deb yoziladi".

Abdulloh ibn Umariing aytishicha, "Yer hayvoni "jassosa"ning o'zidir" (jassosa haqida keyingi sahifalarda to'xtalib o'tamiz).

Alomatlarning oxirgisi Yamandan chiqadigan olovdir. Bir hadisda "Adan qaridan", deyilgan bo'lsa, boshqa hadisda "Hijoz yeridan", deb aytilgan.

Qozi Iyoz aytadi: "Ehtimol, ikkita olov odamlarni mahsharga yig'ishi mumkin yoki olov avval Yamandan chiqib, keyin Hijozda zohir bo'lishi mumkin".

Qurtubiy aytadi: "Hijozdan chiqadigan olov chiqib bo'lgan. Odamlarni mahsharga haydaydigan olov hali chiqmadi. U esa Yamandan chiqadi". Quyoshning mag'ribdan chiqishi haqida, Xudo xohlasa, boshqa o'rinda so'z yuritamiz.

أَقْرَبَتِ السَّاعَةُ وَأَنْشَقَّ الْقَمَرُ

"(Qiyomat) soati yaqinlashnb qoldi va oy ham bo'lindi" (Qamar, 1), oyati karimasi haqida rivoyat qilinishicha, Maisa ahli Rasulullohdan mo'jiza ko'rsatishni so'raganlarida, ularga oyni ikkiga bo'lingan holida ko'rsatdilar, oyning ikki parchasi tog'ning ikki tomonida turar zdi. So'ngra Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: "Guvoh bo'linglar", deb aytdilar (Buxoriy va Muslim rivoyati).

Dajjol chiqishidan oldingi alomatlardan biri uch yil qahatchilik bo'lishidir. Odamlar qattiq mashaqqat, ochlik va faqirlik ichida qoladilar.

Hadisi sharifda shunday deyiladi. "...Dajjol chiqishidan oldin uch yil qahatchlik bo'ladi. Odamlar ocharchilikka yo'liqadilar. Birinchi yil Alloh taolo osmonga yomg'irning uchdan yerga ham o'simligining uchdan birini ushlab qolishni buyuradi. Ikkinchi yili Alloh osmonga yomg'irning uchdan ikkisini, yerga ham o'simligining uchdan ikkisini ushlab qolishni buyuradi. Uchinchi yili kelganda Alloh osmonga hamma yomg'irni ushlab qolishni amr etadi. Biror tomchi yomg'ir tushmaydi. Yerga ham hamma o'simligini ushlab qolishni buyuradi. Birorta ko'kat unib chiqmaydi. Birorta uy hayvoni ham, yovvoyi hayvon ham qolmaydi, barchasi halok bo'ladi, faqatgina Alloh xohlagani bundan mustasno". "Odamlar u zamonda nimani iste'mol qilishadi", deb so'rashdi. 'Tahil, takbir, tasbeh, tahmid (aytishadi). Bular odamlarga ovqat o'rniga o'tadi", deb javob berdilar Nabiy sollallohu alayhi va sallam (Hasan hadis. Abu Dovud, Ibn Moja rivoyati).

DAJJOL QAYERDAN CHIQIB, QAYERGACHA BORADI?

Dajjol sharqdan, aniqrog'i, Xurosondan, Isfaxonning Yahudiyya nomli qishlog'idan

chiqadi. So'ngra Iroq bilan Shom o'rtasidagi Hijozga boradi. Bu mal'un, uzoq masofalarni tezlik bilan bosib o'tishda, yerni tez suratda aylanib chiqshida g'ayri oddiy qudratga ega. Shuning uchun unga "Dajjol" deb nom berilgan. Dajjol so'zining lug'aviy ma'nolaridan biri "Yerni kesib o'tuvchi" deganidir. U yer yuzini xachirga o'xshaydigan, dumsiz eshagiga minib aylanib chiqadi. Avvalgi sahifalarda aytib o'tganimizdek, eshagining ikki qulog'i orasi qirq ziro' keladi. Dajjol yomg'irli bulutni harakatlantirgan shamol kabi, yer yuzida juda tez harakat qiladi. Bu ham Allohning bandalariga yuboradigan sinovlardandir. Ba'zi hadislarda zikr qilinishicha, uning eshagi bosgan har bir qadam bir yilga teng kelar ekan. Eshak biror tekislik, do'nglik va chuqurlikni qoldirmay hammasini bosib o'tadi.

DAJJOL YER YUZIDA QANCHA TURADI?!

U yer yuzida qirq kun turadi. Ammo bu qirq kun, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam sifatlaganlaridek, bizning qirq kunimiz kabi emas.

"...Biz so'radik; "Ey Rasululloh! U yer yuzida qancha turadi?"

Aytdilar: "Qirq kun. Bir kuni bir yildek, yana bir kuni bir oydek, yana bir kuni bir haftadek. Qolgan kunlari, sizlarning kuningizga o'xshash".

"Ey Rasululloh! Mana shu bir yilga teng keladigan kunda, bir kecha-kunduzdagi (besh mahal) namoz bizga kifoya qiladimi?"

"Yo'q. O'zingiz belgilab (o'qiyveringlar)".

"Ey Rasululloh! Yerda u qay tezlikda harakat qiladi"

"Ortidan shamol esgan yomg'irli bulut kabi. U bir qavmga kelib, da'vat qiladi. Ular unga iymon keltirib, da'vatini qabul qiladilar..." (Sahih hadis. Muslim rivoyati).

Dajjol Baytul Maqdisda, Masih Iso ibn Maryam qo'lida halok bo'ladi.

Hadisi sharifda shunday kelgan: "...So'ngra Iso alayhissalom tushib, sahar vaqtida (odamlar oldiga) boradi. Ular aytadilar: "Bir kishi (kelyapti)". Borib qarasar. Iso ibn Maryam alayhissalom bo'ladi. Namozga takbir aytilgach, "(Imomlik qilish uchun) oldinga o'ting, ey (Allohning) Ruhi", deyishadi. U aytadi; "Imomingiz marhamat qilib (oldinga o'tsin) va sizlarga namoz o'qib bersin". Bomdod namozi o'qib bo'lingach, hammalari Dajjolning oldiga chiqadilar. La'nati kazzob Iso ibn Maryamni ko'rgan zahoti, tuz suvda eriganidek, erib ketadi. So'ngra Iso Dajjolni o'ldiradi. Hattoki daraxt va toshlar (tilga kirib) nido qiladi: "Ey Ruhulloh! Mana bu (orqamga berkingan) yahudiy (Dajjolning tobe'laridan)". Iso alayhissalom ulardan birontasini qoldirmasdan, hammasini halok qiladi.

DAJJOL KIRA OLMAYDIGAN MAKONLAR

Aytib o'tganimizdek, Dajjolning qadami barcha shahar va qishloqlarga yetadi. Lekin muqqaddas shaharlar bo'lgan Makka va Madina bundan mustasno.

Makka — Allohning shahri, Uning O'zi shaharini har qanday tajovuz va yomonlikdan, bosqinchi va xiyonatordan asraydi. Makka tavhid bayrog'i yer yuzida birinchi bo'lib ko'tarilgan makondir.

إِنَّ أَوَّلَ بَيْتٍ وُضِعَ لِلنَّاسِ لَلَّذِي بِبَكَّةَ مُبَارَكًا وَهُدًى لِّلْعَالَمِينَ ﴿٩٦﴾ فِيهِ آيَاتٌ بَيِّنَاتٌ مَّقَامُ
إِبْرَاهِيمَ وَمَنْ دَخَلَهُ كَانَ ءَامِنًا ۗ وَلِلَّهِ عَلَى النَّاسِ حِجُّ الْبَيْتِ مَنِ اسْتَطَاعَ إِلَيْهِ سَبِيلًا ۚ وَمَنْ كَفَرَ
فَإِنَّ اللَّهَ غَنِيٌّ عَنِ الْعَالَمِينَ ﴿٩٧﴾

"Albatta odamlar ibodat qilishlari uchun qurilgan birinchi uy Makkadagi muborak va butun olamlar uchun hidoyat (mayoqi) bo'lgan Ka'badurki, unda maqomi Ibrohnm (ya'ni Ka'bani qurishda Ibrohim alayhissalom oyoqlari ostida bo'lgan xarsang tosh) va unga kiringach, odam har qanday xavf-xatardan omon bo'lishi (kabi) ochiq oyat-alomatlar bordir. Va yo'lga qodir bo'lgan kishilar zimmasida Alloh uchun mana shu uyni haj-ziyosat qilish burchi bordir. Kimda-kim kofir bo'lsa (ya'ni Ka'bani ziyosat qilish farz ekanini inkor qilsa), bas albatta, Alloh butun olamlardan behojat bo'lgan zotdir (Oli Imron, 96-97).

Madina — Nabiy sollallohu alayhi va sallam hijrat qilib borgan makon. Alloh uni yoqimli, xushbo'y qilgani uchun "Tayyi-ba" nomini oldi. Bu shahar Nabiy sollallohu alayhi va sallam hijratlari tufayli munavvar bo'ldi. U Zotning Qabrlari ham o'sha yerda. Alloh bu shaharning nurini, ko'rkamligini yanada zyayoda etdi, tuprog'ini ham xushbo'y, yoqimli qildi. Rasululloh Madinaga baraka so'rab duo qilganlar. Alloh uning mevaldriga, toshu tarozusiga baraka bergan.

Hadisi sharifda kelishicha, bu ikki muborak shahar mal'un Dajjolga harom bo'lishi haqiqat. Alloh dunyo va oxiratda uni xor qilsin.

Anas ibn Molikdan rivoyat qilingan hadisda Rasululloh sodlallohu alayhi va sallam shunday deydilar: "Biron bir shahar yo'qki, Dajjolning qadami yetmagan bo'lsa, ammo Makka bilan Madina bundan mustasno" (Buxoriy va Muslim rivoyati).

Anasdan rivoyat qilingan boshqa hadisda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytadilar: "Dajjol Makka va Madinadan tashqari hamma shaharlarga kiradi. Bu ikki sha-harning har bir dara va so'qmoqlarida farishgalar saf tortgan holda qo'riqlab turadilar. Dajjol (shahar tashqarisidagi) taqir yerga tushganida, yer uch marta silkinadi. Kofir va munofiqarning hammasi (ikki haramni tashlab) Dajjol oldiga chiqadilar" (Buxoriy va Muslim rivoyati). Boshqa bir sahih hadisda: "Bironta makonga Dajjolning oyog'i yetmasdan qolmaydi. Lekin Makka, Madina, Baytul Maqdis va Tur tog'i bundan mustasno. Chunki farishtalar uni bu joylardan quvib chiqaradi", deyilgan.

Ma'lumki, Baytul Maqdis Ka'badan keyin ibodat uchun qurilgan ikkinchi uydur. Aksar payg'ambarlar shu yerga jo'natilganlar. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam me'roj kechasida avvalo Baytul Maqdisga borganlar. U, shuningdek, avvalgi payg'ambarlarning qiblisi hamdir. Alloh Ka'bani qibla qilib belgilaguniga qadar, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ham o'sha tarafga yuzlanib namoz o'qiganlar. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam me'roj kechasida, Baytul Maqdisda barcha payg'ambarlarga (Odamdan Iso alayhimus-salomgacha) imom bo'lib namoz o'qidilar.

Tur tog'i payg'ambar Muso alayhissalom bilan Olamlarning Rabbi Alloh taolo o'rtasida bo'lgan bevosita suhbatga guvoh bo'lgan tog'dir. Alloh taolo aytadi:

وَنَدَيْنَاهُ مِنْ جَانِبِ الطُّورِ الْأَيْمَنِ وَقَرَّبْنَاهُ نَجِيًّا

"Biz unga Tur (tog'innng) o'ng tomonidan nido qildik va uni munojot qilgan holda (O'zimizga) yaqin etdik" (Maryam, 52).

Avval payg'ambarlikni, so'ngra haddidan oshib ilohlikni da'vo qilib, "Men parvardigoringizman", deb aytishga jur'at qiladigan kazzob Dajjol yuqorida zikr etilgan muqaddas makonlarga kira olmasligi aniq haqiqatdir.

(Bizga Dajjolni ko'rish taqdir qilinadimi, yo'qmi, har qanday holatda uning yomonligidan panoj so'raymiz. Chunki u juda katta fitna, keng tarqaladigan yomonlikdir. Buyuk Arshning sohibi bo'lgan Allohdan so'raymiz, Dajjolning yomomligidan qiyomat kunigacha bizga kifoya qilsin. Omin.

DAJJOL ODAMLARNI NIMAGA CHAQIRADI?

Dajjol ishining boshida Alloh tarafidan yuborilgan payg'ambarligini da'vo qiladi va odamlarni o'zining payg'ambarligini tasdiqlashga chaqiradi. O'zini payg'ambarlarning oxirgisi ekanini aytadi. Bu haqdagi to'g'ri so'z esa, Nabiyimiz sollallohu alayhi va sallamning bizga bergan ushbu xabarlaridir: "Dajjol ishining boshida: "Men Allohning nabiyiman. Mendan keyin bironta payg'ambar kelmaydi..." deydi".

Kazzob bu bilan kifoyalanmaydi, nodonligi va ahmoqligi shu darajaga yetadiki, o'zini iloh va parvardigor deb e'lon qiladi.

Bu xususda kelgan sahih hadislar juda ko'p.

Safiynadan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi va sallam shunday dedilar: «Mendan oldin o'tgan payg'ambar borki, ummatini Dajjoldan ogohlantirgan. Uning chap ko'zi g'ilay. O'ng ko'zining ustida ortiqcha eti bor. Ikki ko'zining o'rtasida "kofir" deb yozilgan bo'lib, Allohga iymon keltirgan har bir mo'min uni o'qiy oladi. Uning ikki anhuri bo'lib, biri jannat, boshqasi do'zaxdir. U bilan ikki farishta bo'lib, payg'ambarlardan ikkitasiga o'xshab ketadi. Xohlasam, u (payg'ambar)larning va otalarining ismini aytib berishim mumkin. Biri Dajjolning o'ng tomonida, boshqasi chap tomonida bo'ladi. Dajjol: "Men sizlarning rabbingaz emasmanmi? Men tiriltiraman va o'ldiraman", deydi. Farishtalardan biri: "Yolg'on aytding", deydi. Lekin (uning gapini) sherigidan boshqa

bironta inson eshitmaydi. Ikkinchi farishta sherigiga: «Rost aytding», deb gapini tasdiqlaydi. Odamlar uning gapini eshitib, Dajjolning gapini tasdiqlayapti, deb o'ylaydilar. Bu fitna bo'ladi. So'ngra yo'lida davom etib, Madinaga yetib keladi. (Shaqarga kirishga) unga ruxsat berilmaydi. "Bu o'sha kishining (ya'ni, Muhammad sollallohu alayhi va sallamning) shahrini?" deb so'raydi So'ngra yo'lida davom etib, Shomga yetib keladi. Alloh uni Afiq tepaligida halok qiladi» (Sahih hadis. Ahmad, Tabaroniy, Tayolisiylar chiqargan).

Samura ibn Jundubning hadisida Nabiy sollallohu alayhi va sallam shunday deydilar: "Dajjolning chap ko'zi g'ilay bo'lib, ustida ortiqcha eti bo'lgan holda chiqadi. U pes va moxovlarni davolaydi, o'liklarni tiriltiradi. Va (odamlarga qarata): "Men sizlarning rabbingizman", deydi. Kimda-kim. "Sen mening rabbimsan", desa, Dajjol fitnasiga tushadi. Kimki "Mening rabbim Alloh azza va jalla", deb, o'lgunicha shu (e'tiqodda) tursa, uning fitnasidan qutulib qoladi. Unga fitna ham, azob ham bo'lmaydi. Dajjol yer yuzida Alloh xohlaganicha turadi. So'ngra mag'rib tomondan Muhammad sollallohu alayhi va sallamni va u zotning dinlarini tasdiq etib, Iso alayhissalom keladi va Dajjolni o'ldiradi. So'ngra qiyomat qoim bo'ladi» (Hasan hadis. Ahmad, Tabaroniy rivoyatlari). Samura ibn Jundubdan rivoyat qilingan yana bir hadisda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam Dajjolni eslab, shunday deganlar: "U chiqqan vaqtda, o'zini "Alloh" deb da'vo qiladi. Kim unga iymon keltirsa, gapini tasdiqlab ergashsa, avval qilgan solih amallari unga foyda bermaydi. Kimda-kim unga kofir bo'lsa va "yolg'onchi" desa, o'tmishda qilgan gunohlari tufayli jazolanmaydi. Dajjol yer yuziga egalik qiladi, faqat Harami sharifga va Baytul makdisga kira olmaydi. U Baytul maqdisdagi mo'minlarni qamal qiladi» (Hasan hadis. Ibn Abu Shayba chiqargan).

Ahmad ibn Hanbal «Musnad»larida Jobir ibn Abdulloh roziyallohu anxudan quyidagi hadisni keltiradi: "Rasululloh sollallohu alayhi va sallam dedilar: "Dajjol din zaiflashgan, ilmdan yuz o'girilgan vaqtda keladi. U qirq kunda yer yuzini aylanib chiqadi. Uning bir kuni bir yildek (uzun), bir kuni bir oydek, yana bir kuni bir haftadek bo'ladi. Qolgan kundri esa, sizlarning kuningizga o'xshash. U ikki qulog'ining o'rtasi qirq ziro' keladigan eshagini minib yuradi. Odamlarga: "Men sizlarning rabbingizman", deydi. U g'ilay, Rabbingiz esa, g'ilay emasdir. Uning nkki ko'zi o'rtasiga "kofir" deb yozilgan bo'lib, o'qishni bilgan-bilmagan har bir mo'min uni o'qiy oladi. Xoh quruqlik bo'lsin, xoh suv, u hamma yerga yetib boradi. Faqatgina Madina va Makkaga kirishni Alloh unga harom qiladi. Bu shaharlarning eshiklarida farishtalar (qo'riqchilik qilib) turadilar. Uning nondan qilingan tog'i bo'ladi. Unga ergashmagan insonlar qattiq mashaqqatda (ocharchilikda) bo'ladilar. Uning ikki daryosi bor, ularni men Dajjoldan yaxshiroq bilaman. Bir daryosining nomi "Jannat", boshqasining nomi "Do'zax". U kimni "Jannat" deb nomlangan daryoga kiritsa, haqiqatda, do'zaxga kirgan bo'ladi. Kimni "Duzax" degan daryoga kiritsa, aslida jannatga kirgan bo'ladi. U bilan shaytonlar jo'natiladi. Ular odamlarga gapiradilar. Dajjol bilan juda katta fitna keladi. Osmonga buyursa, insonlar ko'z o'ngida yomg'ir yog'adi. Bir kishini o'ldiradi, keyin insonlar ko'z o'ngida uni qayta tiriltiradi. So'ngra insonlarga qarata: "Ey insonlar, shunga o'xshash ishlarni faqatgina parvardigor bajara oladi-ku!" deydi. Odamlar Shomdagi Duxon nomli toqqa qochadilar. Dajjol yo'l bosib, ularning oldiga keladi, ularni qattiq qamal qiladi va holdan toydiradi. So'ngra Iso alayhissalom tushib, sahar vaqtida insonlar oldiga keladi. "Ey insonlar, 6u yovuz kazzobning oldiga chiqishdan sizlarni nima to'syapti?" deydi. Odamlar: "Bu kishi (aqldan ozgan, shekilli)", deyishadi. Yaqin borib qarasalar, Iso ibn Maryam alayhissalom ekani ma'lum bo'ladi. Namozga takbir aytilgach, «(Imomlik qilish uchun) oldinga o'ting,

ey (Allohning) Ruhi", deyishadi. U zot aytadi: "Imomingiz marhamat qilsin (oldinga o'tsin) va sizlarga namoz o'qib bersin». (So'ngra) Dajjolning oldiga chiqadi. La'nati kazzob Iso ibn Maryamni ko'rgan zahoti tuz suvda eriganidek erib ketadi. Hattoki daraxt va toshlar (tilga kirib) nido qiladi: «Ey Ruhulloh (Iso ibn Maryam), mana bu (orqamga bekingan) yahudiy (Dajjolning tobe'laridan)». Iso ibn Maryam ulardan birontasini qoldirmasdan, hammasini halok qiladi».

DAJJOLNING FITNALARI

Dajjol chiqqach, avvalo, payg'ambarlikni da'vo etadi. Keyin o'zini ibodat qilinadigan iloh deb e'lon qiladi. Odamlarga "Men sizlarning rabbingiz emasmanmi?" deydi. Dajjol bu da'voni qilishdan oldin g'ayrioddiy hodisalar yoki mo'jizalar ro'y beradi. Aslida ular Alloh taolo bandalarini sinash uchun yuborgan fitna-sinovlar bo'ladi. Bu hodisalarni ko'rib, mo'minning iymoni ziyodalashsa, kofir zalolatga chuqurroq botadi. Unga ergashganlar esa, halok bo'ladilar.

Dajjolning fitnalaridan biri Alloh taoloning irodasi bilan o'liklarni tiriltirishidir. Yosh, baquvvat bir yigitni chaqirib, qilichi bilan uni ikki bo'lakka bo'lib tashlaydi. So'ngra yigitni turishga buyuradi. Yigit go'yoki hech narsa bo'lmaganidek, kulib turib ketadi.

Uning fitnalaridan yana biri osmonga yomg'ir yog'dirishni buyursa, osmondan yomg'ir yog'ishi, yerga o'simlik undirishni buyursa, yerdan ko'kat unib chiqishidir. Hatto chorva mollar (yaylovdan) oldingidan ko'ra semizroq va kattaroq bo'lib, yelinlari sutga to'lib qaytadi. So'ngra Dajjol odamlar qoshiga kelib, ularni o'ziga ibodat qilishga chaqiradi. Insonlar bosh tortib, da'vatidan yuz o'giradilar. Shunda yer, go'yoki unda avval o'simligu nabotot o'smagandek, xarobaga aylanadi. Odamlar qo'lida bironta mol-mulki qolmay qaytadilar. Yer bo'shab, taqir bo'lib qoladi. Mol-dunyolar yo'q bo'lib ketadi.

Dajjolning fitnalaridan yana biri, u xarobazorlardan o'taturib, unga xazinalarini chiqarishni buyuradi. Shu zahoti xazinalar to'zg'igan aridek chiqib keladi.

Uning yana boshqa bir fitnasi, u bir kishini chaqirib aytadi: "Agar ota-onangni qayta tiriltirsam, mening xudoligimga guvohlik berasanmi?" "Ha", deydi u kishi. Shunda ikki shayton unga ota va onasi suratida ko'rinib: "Ey o'g'lim, unga ergash, u sening rabbing bo'ladi", deyishadi.

Yana bir fitnasi, uning jannati va do'zaxi bo'ladi. Aslida do'zaxi jannat, jannati esa do'zaxdir. Kim unga ergashsa, jannat deb o'ylagan anhorga kirgizadi. Lekin u do'zaxga kirgan bo'ladi. Kimda-kim unga osiy bo'lsa, do'zax deb bilingan anhorga otadi. Aslida uni jannatga kirgazgan bo'ladi.

Bu fitna va tuzoqlarning hammasi ishonchli, sahih hadislarda kelgan. Dajjolning kimligi bizga yanada ravshan bo'lishi uchun, shunga o'xshash fitnalar haqida xabar bergan ba'zi hadislarni keltirib o'tamiz.

Abu Said Xudriydan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi va sallam dedilar: "Dajjol chiqqanida, mo'minlardan bir kishi uning oldiga boradi. (Yo'lda) qurollangan

kishilarga — Dajjolning kishilariga duch keladi. Ular: "Qayerga ketyapsan?" deb so'raydilar. U: "O'sha chiqqan kishi (Dajjol)ning oldiga", deydi.

«Uning rabbimiz ekaniga ishonmaysanmi?»
«Rabbimizda sirlik yo'q».

«O'ldiringlar uni», deyishadi so'ngra. Ba'zilari boshqalariga: "Rabbingiz (ya'ni, Dajjol) o'zi yo'g'ida birontasini o'ldirishingizdan sizlarni qaytarmaganmidi?» deydi. Keyin: "Yuringlar, uni Dajjol oldiga olib boramiz", deyishadi.

Mo'min kishi Dajjolni ko'rgan zahoti: "Ey insonlar! Axir bu Rasululloh sollallohu alayhi va sallam zikr qilgan Dajjol-ku", deydi.

Dajjol (odamlariga) buyuradi, mo'min kishi qorni bilan yerga yotqiziladi. Dajjol: "Uni ushlab, boshini yoringlar", deydi. Mo'min kishining orqasi va qorniga ko'p urishadi. Dajjol: "Mening (xudoligimga) iymon keltirmaysanmi?" deydi. (Mo'min) kishi: "Sen kazzobsan, masihi Dajjolsan", deb aytadi. Keyin u mo'minning boshi o'rtasidan arra bilan arralashga buyuradi. Uni ikki oyog'i orasigacha aralab, ikkiga bo'lib yuborishadi. So'ngra Dajjol ikki bo'lakning o'rtasiga kelib: "Tur", deydi. U avvalgidek raso odam bo'lib o'rnidan turadi.

Dajjol: "Endi menga iymon keltirasanmi?" deydi.
Mo'min: "Sening (kimliging) haqida ahlim yanada ziyodalashdi", deb aytadi. So'ngra deydi: "Ey insonlar! Dajjol mendan keyin bironta insonni men kabi holatga sola olmaydi" Dajjol mo'min kishini so'yish uchun ushlaydi. Uning bo'yni bilan o'mrovi o'rtasiga pichoq qo'yadi. Lekin (so'yishga) qodir bo'lmaydi.

Dajjol mo'min kishining qo'l va oyog'idan ushlab daryosiga uloqtiradi. Dajjol uni do'zaxga uloqtirdi deb o'ylaydilar. Aslida uni jannatga tashlagan bo'ladi. Bu (mo'min kishi) Olamlar Rabbi huzurida shahidlarning eng ulug'idir" (Sahih hadis. Buxoriy va Muslim rivoyati).

Boshqa hadisda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam shunday deydilar: "Dajjol keladi. Lekin unga Madinaga kirish harom hilingan bo'ladi. Madina yaqinidagi giyohsiz taqir yerga yetib keladi. (Madinadan) odamlarning yaxshisi yoki yaxshilaridan biri uing oldiga chiqib shunday deydi: "Guvohlik beramanki, sen Rasululloh sollallohu alayhi va sallam hadislarida bayon qilgan Dajjolsan».

Dajjol aytadi: "Agar men bu (kishini) o'ldirsam (keyin tiriltirsam), mening ishim (ya'ni, xudoligim) haqida shubhalanasizlarmi ?

Odamlar: "Yo'q", deydilar.
Dajjol uni o'ldirib, so'ngra tiriltiradi.

Kishi aytadi: "Allohga qasamki, sen haqingdagi fikrim hech qachon hozirgidan-da qat'iyroq bo'lmagan».

Dajjol uni yana o'ldirishni xohlaydi. Lekin Alloh undan bu qudratni tortib oladi» (Sahih hadis. Buxoriy va Muslim rivoyatlari).

Abu Umoma Bohiliy shunday deydilar: "Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bizga xutba o'qidilar Xutbalarining aksarida Dajjol haqida gapirib, bizni ogohlantirdilar va shunday dedilar: «Alloh taolo Odam sollallohu alayhi va sallamni yaratgandan beri yer yuzida Dajjol fitnasidan ko'ra kattaroq fitna bo'lgan emas. Albatta, Alloh jo'natgan har bir payg'ambar ummatini Dajjoldan ogoxdantirgan. Men oxirgi payg'ambarman, sizlar esa, oxirgi ummatsizlar. Shubhasiz, u sizlarga chiqadi. Agar u chiqqan vaqtda, men orangizda bo'lsam, o'zim har bir musulmon ustida u bilan hujjatlashaman. Agar mendan keyin chiqsa, har kim o'zi hujjatlashadi. Alloh mening o'rnimga har bir musulmonga (yordam beradi). Dajjol Shom bilan Iroq o'rtasidagi Xulla degan joydan chiqadi. O'ng va chap taraflarni bosib o'tadi. Ey Allohning bandalari, ey insonlar, sobitqadam bo'linglar. Mendan oldin bironta payg'ambar aytmagan sifatlarni men sizlarga aytib beraman. U ishining boshida: "Men Allohning nabiyiman", deydi. (Bilinglarki) mendan keyin nabiy kelmaydi So'ngra haddidan oshib: "Men sizlarning rabbingizman", deydi. (Bilinglarki) o'lmaguningizcha Rabbingizni ko'rmaysizlar. U g'ilay bo'ladi. Rabbingiz g'ilay emas. Uning ikki ko'zi o'rtasida "kofir" degan yozuv bo'lib, o'qishni bilgan-bilmagan har bir mo'min uni o'qiy oladi. Uning fitnalaridan biri, uning jannati va do'zaxi bo'ladi. Aslida do'zaxi jannat, jannati esa do'zaxdir. Kimda-kim uning do'zaxiga tushish bilan imtihon qilinsa, Allohdan panoh tilasin va Kahf surasining avvalini o'qisin. Olov Ibrohimga (alayhissalom) salqin va salomatlik joyi bo'lgani kabi, Dajjolning olovi ham unga salqin va salomatlik joyi bo'ladi. Uning fitnalaridan yana biri, bir a'robiyga aytadi: "Agar ota-onangni qayta tiriltirsam, rabbing ekanimga guvohlik berasanmi?" U: "Ha", deydi. Unga ikki shayton ota-onasi suratida gavdalanib, aytadilar: "Ey o'g'lim, unga ergash. U sening rabbing".

Dajjolning fitnalaridan yana biri, bir kishiga g'olib bo'lib, uni o'ldiradi. Arra bilan uni arralab, ikki bo'lakka bo'lib tashlaydi. So'ngra odamlarga shunday deydi: "Qaranglar bandamga. Men uni hozir qayta tiriltiraman. So'ngra u mendan boshqa rabbi borligini da'vo qiladi». Alloh u kishiga qayta jon berganda, yovuz, kazzob unga shunday deydi: "Rabbing kim?" U aytadi: "Rabbim Allohdir. Sen Allohning dushmanisan. Sen Dajjolsan. Allohga qasamki, sen haqingdagi fikrim hech qachon bugungidek qat'iyroq bo'lmagan" (Hasan hadis. Izohi yuqorida keldi).

Nuvos ibn Sam'on Kilobiydan rivoyat qilinadi; "Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bir kuni tush vaqtida Dajjolni esga oldilar, uni kamsitdilar va fitnasini katta sanadilar. Hatto biz uni xurmozor tarafda deb gumon qilib qoldik. So'ngra shunday dedilar: «Men sizlarga Dajjol chiqishidan qo'rqmayman. Agar u men sizlarning orangizda bo'lgan vaqtimda chiqsa, o'zim har biringiz uchun u bilan hujjatlashaman. Agar men sizlarning orangizda bo'lmagan vaqtimda chiqsa, har kim o'zi uchun hujjatlashadi. Alloh mening o'rnimga, har bir musulmonga (yordam beradi). U sochi jingalak, ko'zi uzumdek bo'rtib chiqqan, yosh yigitdir. Men uni xuddi Abdul Uzzo ibn Qatanga o'xshataman. Kimda-kim unga duch kelsa, Kahf surasining avvalini o'qisin. Dajjol Shom bilan Iroq o'rtasidagi Xulla degan joydan chiqadi. U o'ng va chap taraflarda fasod tarqatadi. Ey Allohning bandalari, sobitqadam bo'linglar».

Biz so'radik: "Ey Rasululloh! U yerda qancha turadi?"

"Qirq kun. Bir kuni bir yilga teng, yana bir kuni bir oyga teng, yana bir kuni bir haftadek, qolgan kunlari esa, sizlarning kuningiz kabidir", deb javob berdilar.

Biz yana soʻradik: "Ey Rasululloh! Mana shu bir yilga teng keladigan kunda bizga bir kunlik (besh mahal) namoz kifoya qiladimi?"

«Yoʻq. Oʻzingiz belgilab (oʻqiyveringlar)», deb aytdilar.

"Ey Rasululloh! Yer yuzida u qanday tezlikda harakat qiladi", deb soʻradik keyin.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam javob berdilar: «Shamol haydayotgan yomgʻirli (bulutga) oʻxshaydi. Bir qavmga kelib, daʼvat qiladi. Ular unga iymon keltirib, daʼvatini qabul etadilar. Shunda u osmonga buyuradi, bas, yomgʻir yogʻadi. Yerga buyuradi, koʻkat undiradi. Odamlarning chorva hayvonlari kechqurun (yaylovdan) kattalashib, yelinlari sutga toʻlib, biqinlari semirib qaytadi. Soʻngra boshqa qavmga kelib, daʼvat qiladi. Ular Dajjolning soʻzini rad etadilar. Dajjol ulardan yuz oʻgirib ketganida, yerlar hosilsiz boʻlib, qoʻllaridagi molu dunyolaridan biron narsa qolmaydi.

U xazinalar (koʻmilgan) joydan oʻtib, "xazinalaringni chiqar", deydi. Xazinayu dafinalar, asalarilar ona ariga ergashganidek, uning ortidan ergashib yuradilar.

Soʻngra barvasta, yosh yigitni chaqiradi, uni qilichi bilan urib, otilgan oʻq masofasicha boʻlakka boʻlib tashlaydi. Soʻngra yigitni chaqiradi. Yigit yuzi yorishib (goʻyoki hech narsa boʻlmagandek) kulib keladi. Dajjol shu holatda turganida, Alloh Masih Iso ibn Maryamni joʻnatadi. U Damashqning sharqidagi oq minora yoniga, sariq kiyim kiygan, qoʻlini ikki farishtaning qanotlariga qoʻygan holda tushadi. Iso ibn Maryam boshini egsa suv tomadi. Agar koʻtarsa, marjondek terlar oqadi. Uning nafasi yetgan kofir oʻlmasdan qolmaydi. Nafasi esa koʻzi yetgan joygacha yetadn. U Dajjolni qidiradi. Nihoyat, Ludda darvozasi yonida topib, uni oʻldiradi. Soʻngra Iso alayhissalom Alloh Dajjoldan saqlagan qavmning oldiga boradi. Ulardan qoʻrquv va mashaqqatni ketkizib, jannatdagi darajalari haqida gapirib beradi. Holat shunday boʻlib turganda Alloh taolo Iso alayhissalomga: "Men ularga qarshi jang qilishga birrotasining qudrati yetmaydigan bandalarimni chiqardim. Bandalarimni Tur togʻiga (olib chiqib) saqla", deb vaxiy qiladi. Soʻng Alloh Yaʼjuj-Maʼjujni joʻnatadi. "Yaʼjuj va Maʼjuj (toʻgʻoni) ochilib, ular har bnr tepalikdan oqib keladilar» (Anbiyo, 96). Ularning avvali Tabariya koʻlidan oʻtib, uning suvini ichib qoʻyadilar. Oxiridagilar oʻtayotganlarida: "Bu yerda oldin suv bor edi", deb aytadilar. Iso paygʻambar va uning asʻhoblari qamal qilinadi. Hatto ulardan biriga hoʻkizning boshi, bugungi kundagi sizlarning yuz dinoringizdan afzal boʻladi (yaʼni, qattiq ocharchilik boʻladi). Iso paygʻambar va uning asʻhoblari duo-iltijo qiladilar. Shunda Alloh taolo Yaʼjuj va Maʼjuj boʻyniga nagʻaf qurtini tushiradi. Ular bir odam oʻlimidek, hammalari oʻlib bitadilar. Soʻngra Iso paygʻambar va uning asʻhoblari yerga tushadilar. Bir qarich ham boʻsh yer topa olmaydilar. Hammayoqni Yaʼjuj-Maʼjujlarning jasadi va badboʻy hidi bosib ketgan boʻladi. Iso va asʻhoblari yana duo-iltijo qiladilar. Alloh yomgʻir yogʻdiradi. Yomgʻir, toshli uy boʻlsin, junli uy boʻlsin, hammasiga tushadi. Yerni yuvib, oynadek (silliq va pokiza) qilib qoʻyadi. Soʻngra yerga aytiladi: "Mevalaringni undir, barakangni qaytar". Oʻsha vaqtda bir guruh (odamlar) bir dona xurmoni yeb (qoʻyadilar) va uning shoxi ostida hammalari soyalanadilar. Alloh taolo sutga baraka beradi. Hattoki bir homilador tuyaning (suti) bir guruh odamga kifoya qiladi. Homilador sigirning (suti) bir qabilaning odamlariga yetadi. Homilador qoʻyning (suti) bir urugʻ ahliga yetarli boʻladi. Ular shunday holatda ekanlarida Alloh xushboʻy shamolni joʻnatadi. U odamlarning qoʻltiqlari ostidan esib oʻtadi. Shu bilan Alloh har bir moʻmin va muslimning jonini oladi. (Yer yuzida) faqat yomon odamlar qoladi. Ular eshaklar kabi, ayollar bilan oshkora yaqinlik qiladilar. Ularning ustiga qiyomat qoim boʻladi».

Boshqa rivoyatda: Ya'juj-Ma'jujning "avval bu yerda ko'l bo'lar edi", degan so'zidan keyin quyidagi jumla kelgan: "So'ngra yo'llarida davom etadilar. Nihoyat "Xomr" degan toqqa yetib keladilar. U Baytul Maqdisdagi tog'dir. Ular aytadilar: "Yerdagilarning hammasini o'ldirib bo'ldik. Kelinglar, osmondagilarni ham o'ldiramiz». Ular osmonga qarata o'q ota boshlaydilar. Alloh o'qlarini qizil qonga bo'yalgan holda o'zlariga qaytaradi" (Termiziy "Jome'" kitobida bu hadisni sanadlarini bog'lab keltirgan).

Alloh taolo Ya'juj va Ma'jujni halok qilgach, bo'yinlari tuya bo'yni kabi yo'g'on qushlarni jo'natadi. Ular Ya'juj va Ma'jujning jasadlarini chuqur o'raga olib borib tashlaydilar Termiziydan boshqalar: "Qushlar Ya'juj va Ma'jujning jasadlarini Muhayyalga olib borib tashlaydi» (Muhayyal - kun chiqar tarafdagi dengiz), deb rivoyat qilganlar. «Musulmonlar Ya'juj va Ma'jujdan qolgan o'q-yeylarni yetti yilgacha olovda yog'adilar» (Sahih hadis. Izohi yuqorida o'tdi).

MO'MINGA XUSHXABAR

Dajjolning siyrati qo'rquv va hadikni paydo qiladi. Ha, uning fitnalariga aldanish, guruhiga qo'shilib qolish, do'zaxiga kirish va nihoyat, uning tobe'lari qatorida halok bo'lish qo'rquvni paydo qiladi.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ummatlarini Dajjoldan aniq va ravshan qilib ogohlantirdilar. Biz bu hadislarining ba'zisini hukmingizga havola qildik.

Dajjol zikr qilinganida mo'min kishi ogoh bo'lishi va hadiksirashi tabiiy. Lekin vorid bo'lgan umumiy hadislardan Nabiyimiz sollallohu alayhi va sallamning ummatlariga mehribonliklarini, ular uchun tashvishlanishlarini va ularniig najot topishiga qanchalar ishtiyoqli ekanliklarini bilib olamiz: "Men sizlarga Dajjol chiqishidan qo'rqmayman. U chiqqanda, orangizda bo'lsam, men sizlar uchun u bilan hujjatlashib (g'olib) bo'laman. Agar u men orangizdan ketganimdan keyin chiqsa, har bir kishi o'zi uchun hujjatlashadi. Alloh mening o'rnimga har bir musulmonni himoya qiladi".

Bu so'zlar har bir mo'minga qalb oromi va xotirjamlikni baxsh etadi.

Dajjol haqiqiy mo'minga zarar bera olmasligi haqidagi mana bu hadis esa, unga yanada ko'proq xotirjamlikni keltiradi. Huzayfadan rivoyat qilinadi: "Ba'zilaringiz (tomonidan sodir bo'ladigan) fitna Dajjol fitnasidan kura, menga xavfliroq» bironta fitna, hoh kichik bo'lsin, hoh katta, Dajjol fitnasi oldida arzimas bo'lib qoladi. Kimda-kim oldingi fitnalardan najot topgan bo'lsa, Dajjol fitnasidan ham qutulib qoladi. Allohga qasamki, u musulmonga zarar bera olmaydi. Uning ikki ko'zi o'rtasiga kofir deb yozilgandir" (Sahih hadis. Ahmad rivoyati).

Imom Qurtubiy aytadi: «Agar: "Nima uchun hadisda "Dajjol musulmonga zarar bera olmaydi", deb aytilyapti, axir Madinadan uning oldiga chiqqan kishini arra bilan ikki bo'lakka ajratib, o'ldiradi-ku. Bu zarar, bo'lib ham, eng katga zarar emasmi?» deb so'rasalar, shunday javob beramiz: "Hadisdan bu ma'no ko'zlanmagan. Balki hadisning ma'nosi — haqiqiy musulmon Dajjolni belgilaridan tanigani uchun, la'nati uni fitnaga solib, dinidan chiqara olmaydi. Kimning iymoni zaif bo'lsa, Dajjol qo'lida sodir bo'ladigan

g'ayrioddiy ishlarni ko'rib, aldanadi va unga ergashadi. Vallohu a'lam» («Tazkira» kitobidan).

MASIH (ISO) MASIH (DAJJOL)NI O'LDIRADI

Hadisda keldiki: «...So'ngra Iso alayhissalom yerga tushadi. Sahar vaqtida insonlar oldiga kelib shunday deydi: "Ey insonlar! Bu jirkanch kazzobga qarshi chiqishdan sizlarni nima to'syapti?" Odamlar: "Bu kishi (aqldan ozgan, shekili)", deydilar. Borib qarasalar, Iso ibn Maryam ekanini ko'radilar. Namozga takbir aytiladi. Shunda (imomlik qilish uchun) oldingi safga o'ting, ey (Allohning) Ruhi", deyishadi. Iso aytadi: "Imomingiz marhamat qilsin (oldinga safga o'tsin) va sizlarga namoz o'qib bersin".

Bomdod namoziki o'qib bo'lishgach, hammalari Dajjolning oldiga chiqadilar. Kazzob Dajjol Isoni ko'rgan zahoti tuz suvda eriganidek eriy boshlaydi. Hattoki daraxt va toshlar (tilga kirib) nido qiladi: "Ey Ruhulloh, bu (orqamga berkitib olgan) yahudiy (Dajjol tobe'laridan). Iso Dajjol tobe'laridan birontasini qoldirmay halok qiladi» (Hasan hadis. Ahmad va Hokim rivoyati).

Avvalgi sahifalarda, Iso ibn Maryamnining tushishi va Dajjolni qatl etishi bayon qilingan edi.

Abu Umoma Bohiliy rivoyat qilgan hadisda aytiladi: "Rasululloh sollallohu alayhi va sallam Dajjol haqida zikr qilgan vaqtlarida, Abu Askarning qizi Ummu Shurayk so'radi: "Ey Rasululloh! (O'sha vaqtda) arablar qayerda bo'ladi ?»

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam javob berdilar: "Ular juda oz qoladi. Aksar qismi Baytul Maqdisda bo'lib, imomlari solih kishi bo'ladi. Odamlarga bomdod namozini o'qib berish uchun oldingi (safga) o'tmoqchi bo'lganida, ularning oddiga Iso ibn Maryam alayhissalom tushadi. Iso odamlarga (imom bo'lib) namoz o'qib berishi uchun imom orqaga chekinadi. Shunda Iso alayhissalom uning yelkasiga qo'lini qo'yib shunday deydi: "Oldingi (safga) o't va (odamlarga imom bo'lib, namoz o'qib) ber. Chunki sen uchun (namozga) takbir aytildi". U odamlarga imom bo'lib namoz o'qiydi. Namoz tugagach, Iso alayhissalom aytadi: "Eshiklarni ochinglar". Bas, eshiklar ochiladi. Tashqarida Dajjol yetmish ming Bani Isroil yahudiylari bilan hammasi qilich va aslahalar bilan qurollangan turgan bo'ladi. Dajjol Isoni ko'rgan zahoti suvda erigan tuzdek eriydi va orqasiga qocha boshlaydi. Iso unga qarata: "Men senga bir zarba beriishm kerak. Mening zarbamdan qochib, qutula olmaysan", deydi.

Iso Dajjolgga Damashq sharhidagi Ludda darvozasida yetib oladi va unga zarba berib, o'ldiradi. Alloh Dajjol tobe'lari bo'lgan yahudlarni mag'lub etadi. Ular bironta tosh yoki daraxt yoxud hayvonning orqasiga yashirinsalar, u tilga kirib, gapiradi: «Ey Allohning bandasi! Mana bu yahudiy (Dajjolning tobe'daridan). Kel, uni o'ldir". Faqatgina "g'arqada" degan daraxt gapirmaydi. Chunki u yahudlarning daraxtidir».

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam shunday dedilar: "Isoning (yer yuzida) turadigan kunlari qirq yil bo'ladi. Bir yili yarim yilga teng. Yana bir yili bir oy kabi. Bir oyi bir haftadek. Oxirgi kuni uchqundek bo'lib, Madinaning bir eshigidan kirib, ikkinchi eshigiga borguningizgacha kech kirib qoladi". "Ey Rasululloh! Biz bu qisqa kunlarda namozni

qanday o'qiyamiz", deb so'rasdi. "(Dajjol chiqqan) o'sha uzun kunlarda (oldin) qilganingiz kabi vaqtni belgilab, namoz o'qiyveringlar", deb javob berdilar.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam yana shunday dedilar: "Iso alayhissalom ummatim ichida adolatli hakam va odil imom bo'lib turada. Xochni sindiradi, cho'chqani so'yadi (ya'ni, o'ldirib yuboradi), jizyani bekor qiladi, (ya'ni, ahli kitob Islomni qabul qiladi) sadaqani tark etadi, qo'y va tuyalarning zakotini olishga harakat qilinmaydi (chunki sadaqa va zakotni hech kim olmaydi), nafrat va adovat ko'tarilib ketadi Zaharli jonivorlarning zahari yo'qoladi. Hatto yosh bola ilonning iniga qo'l suqsa ham, ilon uni chaqmaydi. Qiz bola sherga narsa suqsa ham, sher zarar bermaydi. Bo'ri xuddi itlardek qo'ylarni (qo'riqlaydi.) Idish suvga to'lganidek, yer yuzi tiichlikka to'ladi. Odamlarning gapi bir xil bo'lib, faqat Allohga ibodat qilinadi. Urush olovlari so'nadi. Quraysh o'z mulkini qaytarib oladi. Yer tog'oraga o'xshab, Odam alayhissalom davri (o'simliklaridek, katta) o'simliklar undiradi. Hatto bir necha nafar kishi bir bosh uzum ustiga jamlanib (yeyishganda), uzum ularni to'ydiradi. Yana bir nechta odam anor (yeynsh uchun) to'planadilar. Anor ularga yetarli bo'ladi. Ho'kiz shuncha-shuncha pul bo'ladi. Ot bir necha tanga bo'ladi".

"Ey Rasululloh! Nima uchun otlar arzon bo'ladi?" deb so'rasdi.
"Chunki, u urushga minilmaydi (ya'ni, urush bo'lmaydi)".
"Ey Rasululloh! Ho'kizlar nima uchun qimmat bo'ladi?"
"Chunki ular bilan yer haydaladi».

So'ngra Rasululloh sollallohu alayhi va sallam so'zlarida davom etib, shunday dedilar: "Dajjol chiqishidan oldin uch yil qahatchilik bo'lib, odamlar qattiq ocharchilikda qoladilar. Birinchi yil Alloh osmonga yomg'irning uchdan birini ushlab qolishni, yerga esa o'simligining uchdan birini ushlab qolishini buyuradi. Ikkinchi yili kelganda, Alloh osmonga yomg'irning uchdan ikkisini, yerga ham o'simligining uchdan ikkisini ushlab qolishni buyuradi. Uchinchi yili Alloh osmonga bir qatra ham yomg'ir yog'dirmaslikni buyuradi. Bir tomchi yomg'ir ham tushmaydi. Yerga o'simlik undirmaslikni buyuradi. Yerda bir dona ko'kat o'smaydi. Bironta uy hayvoni va yovvoyi hayvon qolmay, halok bo'ladi. Alloh xohlagani bundan mustasno". Shu vaqt savol berildi: "Odamlar o'sha zamonda qanday hayot kechiradilar?"

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam javob berdilar: "Tahlil, takbir, tasbeh, tahmid mana shular odamlarga ovqat o'rniga o'tadi" (Hasan hadis. Abu Dovud, Ibn Moja rivoyati).

Bu hadisning qiymati va ahamiyati haqida Ibn Moja shunday deydi: "Abu Hasan Tanonisdan eshitdim. U Abdurahmon al-Muharibiydan ushbu so'zlarni eshitgan ekan: "Bu hadisni muallimlar maktab o'quvchilariga o'rgatishlari lozim".

Xullas, har bir mo'min kishi Rabbimiz takdir qilgan ishlarni bajarish uchun Iso alayhissalomning yer yuziga tushishiga iymon keltirishi lozimdir. Buni sahih mutovotir hadislar e'tirof qilgan. Biz ushbu hadislarning ba'zilarini aytib o'tdik.

Muslim va Ibn Moja Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilgan hadisda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam shunday dedilar: "Ibn Maryam adolatli hakam bo'lib, yer yuziga tushadi. Xochni sindirib, cho'chqani o'ldiradi, jizyani bekor qiladi, tuyalar tashlab

qo'yiladi va ularning zakotini olishga harakat qilinmaydi. Nafrat, adovat va hasad ko'tarilib ketadi. Odamlar molidan sadaqa berish uchun boshqalarni chaqiradilar. Lekin bironta odam sadaqa olmaydi" (Sahih hadis. Muslim rivoyati).

Abu Hurayradan rivoyat qilingan yana bir hadisda Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning: "Iso ibn Maryam orangizga tushganda, imomingiz o'zingizdan bo'lsa, nima qilasizlar?" (Boshqa hadisda: "O'zingizdan bo'lgan kishini imom qilsa...") deganlaridagi «o'zingizdan» lafzi xususida Ibn Abu Zi'b: "Buning ma'nosini bilasizlarmi?" deb so'radi. "O'zingiz ayta qoling", deyishdi. U javob berdi: "Rabbingizning Kitobi va Nabiyingizning sunnatiga binoan imomlik qilsa", degan ma'nodadir».

Bir hadisda Nabiy sollallohu alayhi va sallam shunday dedilar: "Nafsim qo'lida bo'lgan zotga qasamki, Iso ibn Maryam Ravhodagi tepalikda haj yoki umra yoki ikkisini ado qilish uchun "labbayka"ni aytadi».

ISO MASHI YER YUZIDA QANCHA TURADI?

Iso alayhissalomniig yer yuziga tushganidan keyin qancha muddat turishi haqida turli xil rivoyatlar kelgan.

To'g'ri, u zotning yer yuzida qancha turishlarini belgilab bergan hadislar bor. Ularning ba'zisida, Iso yer yuzida yigirma to'rt yil turadi, deb aytilgan. Lekin tekshiril-gan sahih hadislar, u zotning yetti yil turishlarini e'tirof etadi.

Abdulloh ibn Amr rivoyat qilgan hadis:"... So'ngra odamlar yetgi yil turadilar. (Bu vaqt mobaynida) ikki kishi bir-biri bilan janjallashmaydi. Keyin Alloh Shom tarafdand sovuq shamol yuboradi" (Sahih hadis. Muslim ryavoyati).

ISONING YERGA TUSHISHI YANGI RISOLAT EMAS

Iso alayhissalom oxir zamonda yer yuziga yangi risolat (shariat) olib tushmaydi. Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam — nabiylarning oxirgisi taolo Ahzob surasida "Nabiylarning oxirgisi", deb aytgan. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: "Mendan keyin payg'ambar bo'lmaydi", deganlar. Yana: "Men kuzatuvchiman" (ya'ni, "payg'ambarlarning oxirgisi va kuzatuvchisiman"), deb aytganlar.

Shuningdek, u zot Umar ibn Xattobga shunday deganlar: "Agar Muso tirik bo'lganida, faqat menga ergashish unga durust bo'lardi".

Iso alayhissalomning tushishlari esa, oxirgi payg'ambar bo'lgan Muhammad sollallohu alayhi va sallamdan oldingi payg'ambarning kelishidir. Lekin u zot Muhammad alayhissalomning shariatlariga ergashadi.

"Eslang (ey ahli kitob), Alloh barcha payg'ambarlardan: "Men sizlarga qanday Kitob va hikmat bermayin, keyin sizlarning payg'ambarligingizni tasdiq etuvchi bir payg'ambar (ya'ni, Muhammad alayhissalom) kelgach, albatta, unga iymon keltirursiz va yordam berursiz", deb ahd-paymon olgach, ularga: "Mana shu ahd-paymonimni iqror bo'lib

qabul qildingizmi?" dedi. U payg'ambarlar: "Iqormiz", deb javob qilishgach, Alloh aytdi: Guvoh bulingiz! Men ham sizlar bilan guvoh bo'lguvchilardanman» (Oli Imron, 81). Jobir ibn Abdulloh aytadi: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam shunday deganlarini eshitdim. "Ummatimning bir toifasi qiyomat kuniga qadar haq ustida kurashadilar. Shu vaqt Iso ibn Maryam alayhissalotu vassalom tushgach, amirlari aytadi: "Kel (ey Iso). Bizga (imomlik qilib) namoz o'qib beri. Iso aytadi: "Yo'q. Allohning bu ummatga ko'rsatgan fazlu karami tufayli, sizlar bir-biringazga amirsiz" (Sahih hadis. Muslim, Ahmad rivoyatn).

Imom Qurtubiy aytadi: "Iso alayhissalom shariati Muhammadiyani e'tirof etib, uni yangilab tushadi. Chunki, u shariatlarning oxirgisi. Shuningdek, Muhammad sollallohu alayhi va sallam ham rasullarning oxirgisi. Iso adolatli hakam bo'lib tushadi. Demak, u imom ham, qozi ham, muftiy ham emas. Balki musulmonlarning o'sha vaqtdagi sultoni bo'ladi. U vaqtga kelib, Alloh ilmni ko'targan, odamlar shariatdan bexabar qolgan bo'ladilar. Iso alayhissalom yerga tushishdan oldin Alloh taoloning amri bilan odamlar o'rtasida hukm qilishi, o'zi esa amal qilishi uchun shariat ilmidan yetarli miqdorda egallagan bo'ladi. Mo'minlar Iso atrofida jamlanib, o'zlari ustida hakam bo'lishini so'raydilar. Chunki Isodan boshqa biron tasi bu ishga yaramaydi. Shariat hukmini bekor qilish esa mumkin emas. Chunki yer yuzida «Alloh, Alloh», deb aytilar ekan, qiyomat bo'lmaydi. Demak, shariat hukmlari amalda bo'ladi...»

Shu yerda savol tug'iladi: "Nima uchun Iso oldinroq emas, aynan shu vaqt yer yuziga tushadi?"

Keling, savolga javob berish uchun, so'zni yana Qurtubiyga bersak.

Imom Qurtubiy aytadi: "Biz bu savolga uch xil javob beramiz. Birinchi javob: Bani Isroil avval boshida Iso alayhissalomni o'ldirib, osmoqchi bo'ldilar. Lekin voqealar Alloh taolo kitobida bayon qilib bergan tarzda sodir bo'ldi. Ular doimo Isoni o'ldirganlarini da'vo qilganlar, shuningdek, sehrgarlik va boshqa yaramas ishlarni u zotga nisbat berganlar. Shuning uchun Alloh ularga xorlik kiyimini kiydirdi. Ayniqsa, Alloh Islomni aziz qilib, bayroqini yuqori ko'targan vaqtdan boshlab, ularda yer yuzining biron tasi qismida na saltanat, na quvvat, va na obro'-e'tibor qoldi. Qiyomat yaqinlashib, juda kuchli fitnachi Dajjol chiqquniga qadar shunday bo'ladi. U chiqqach, birinchi bo'lib, Bani Isroil yahudiylari unga bay'at beradi. Shu bilan ular go'yoki musulmonlardan o'ch oladilar. Dajjolning tobe'lari shu holatda bo'lib turgan vaqtlarida, Alloh ular "o'ldirganmiz", deb yurgan kishini - Isoni tushiradi va ularga, boshqa munofiq, fosodlarga uning tirik ekanini ko'rsatadi. Xudolikni da'vo qilayotgan raislari va yo'l boshchilari ustidan uni g'olib qiladi. Dajjolning askarlari bo'lmish Bani Isroilni ham Iso va u bilan birga bo'lgan mo'minlar qo'li bilan mag'lub qiladi. O'sha kuni qochishga joy topa olmaydilar. Agar ulardan biri daraxt, tosh yoki devor orqasiga yashirinsa, ular tnlga kirib, aytib beradi. Hatto Iso uning tepasiga kelganida, yo u Islomni qabul qiladi, yoki o'ldiriladi. Boshqa millatdagi kofirlarning taqdiri ham shunday bo'ladi. Yer yuzida biron tasi kofir qolmaguncha ish shu taxlit davom etadi.

Ikkinchi javob: Iso alayhissalom yer yuziga tushishining sababi, Dajjolni o'ldirish emas, balki, ajalining yaqinlashgani uchundir. Chunki Iso ibn Maryam hozir tirik, Alloh uni o'z huzuriga ko'targan. Tuproqdan yaralgan maxluq samoda o'lishga mumkin emas. Alloh taolo aytadi:

﴿ مِنْهَا خَلَقْنَاكُمْ وَفِيهَا نُعِيدُكُمْ وَمِنْهَا نُخْرِجُكُمْ تَارَةً أُخْرَى ﴾

"Biz sizlarni (yerdan) yaratdik, yana unga qaytarurmiz va (qiyomat kuni) sizlarni yana bir bor undan chiqarurmiz" (Toha, 55).

ALLOH taolo Isoni yerga tushirib, birinchi marta uni yerga dafn qiladi. Yaqindagi kishilar uni ko'radi, uzokdagilar u haqda eshitadi. So'ng uning jonini oladi. Mo'minlar Isoni dafnga tayyorlab, namozini o'qiydilar. Keyin ajdodlari bo'lgan payg'ambarlar dafn qilingan joy — "Muqaddas yer"ga dafn qilinadi. Qiyomatda ham ular bir bilan birga qayta turg'aziladi. Isoning yer yuziga tushirilishining sababi shu. Lekin uning tushishi Dajjolning Ludda darvozasiga yetib kelgan vaqtga to'g'ri kelib qoladi. Bu to'g'ridagi hadislar aytib o'tildi.

Dajjolning fitnasi xudolikni da'vo qilish darajasiga yetadi. Mo'minlardan birontasiga uni o'ldirish nasib etmaydi. Shuning uchun Iso unga yuzlanish va o'ldirishga haqli bo'ladi. Chunki Iso ibn Maryam Alloh O'z risolatini yetkazish uchun tanlagan, kitobini nozil eggan, uni va onasini oyat-alomat qilgan payg'ambarlardan. Demak, Isoning yer yuziga tushish sababi mana shu aynan Dajjolni o'ldirish emas. Vallohu a'lam.

Uchinchi javob: Iso Injilda Muhammad sollallohu alayhi va sallam ummatlarining fazilatini topgan:

ذَلِكَ مَثَلُهُمْ فِي التَّوْرَةِ وَمَثَلُهُمْ فِي الْإِنْجِيلِ

"Mana shu ularning Tavrotdagi misollaridir. Ularning Injildagi misollari esa..." (Fath, 29).

So'ngra Allohdan o'zini Muhammadning ummatidan qilishini so'rab duo qilgach, osmonga ko'tardi. Oxir zamonda ISLOM dinidan, Muhammad sollallohu alayhi va sallamning dinidan unutilganlarni yangilash uchun Alloh uni yerga tushiradi. Isoning tushishi Dajjolning chiqishiga to'g'ri kelib qoladi va uni o'ldiradi.

Isoning tushishi odamlar fitnaga duchor bo'lgan, Dajjolga qarshi jang qilish har bir musulmonga farz bo'lgan vaqtga to'g'ri keladi. Iso ham musulmonlardan biri bo'lgani uchun boshqalarga farz bo'lgan narsa unga ham farz bo'ladi. U ham Muhammad sollallohu alayhi va sallam tobe'laridan bo'lgani uchun jangga kiradi va odamlar ko'z o'ngida Dajjolni o'ldiradi.

Isoning qayerga dafn qilinishi xususida har-xil gaplar bor. Halimiy: "Muqaddas yerga", deb aytsa, boshqalar, "Nabiyyimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam bilan birga dafn qilinadi", deydilar. Vallohu a'lam" ("Tazkira" kitobidan).

DAJJOL CHIQISHIGA IYMON KELTIRISH SHART

Dajjolning chiqishi va u qiyomat alomati ekani haq. Bu ahli sunna, ahli fiqh va ahli hadislarning mazhabidir. Dajjolning chiqishini faqat xavorijlar inkor qiladilar. Lekin biz —

ahli sunna val-jamoa Dajjolning chiqishini ko'zimiz bilan ko'ramizmi, yo'qmi, baribir iymon keltiramiz. Chunki bu haqda bizga to'g'riso'z Muhammad sollallohu alayhi va sallam xabar berganlar. Nabiyimiz ko'zlari bilan ko'rib turgandek, uni bizga ta'rifladilar, aybu nuqsonlarini ochib berdilar. Avvalo, payg'ambarlikni da'vo qilib, so'ngra xudolikni iddao etishini ham xabar berib aytganlarki: "Albatta, Alloh g'ilay emas. Uning ko'zi o'rtasida "kofir" degan yozuv bo'lib, uni, o'qishni biladigan, yoki bilmaydigan har bir musulmon o'qiy oladi".

Dajjol xudolikni da'vo qilgan vaqtda, mo'minlar "Sening yomonligingdan, Allohdan panoh so'raymiz", deyilar. O'qishni biladigan-bilmaydigan mo'min borki, uning ikki ko'zi o'rtasidagi "kofir" degan so'zni o'qishi ham g'ayrioddiy narsa bo'lib, Parvardigorning mo'min bandalariga bergan ne'matlaridir... Subhonalloh...

Kofir esa o'qishni bilishi yoki bilmasligidan qat'iy nazar, johilligi, kofirligi va g'aflatdaligi uchun, bu yozuvni o'qiy olmaydi. Shuningdek, kofir Dajjolning illat, nuqsonlarini payqamaydi. Uning ojizligivi, yaratuvchi emas, balki maxluq ekanini ko'rib tursa ham, iloh deb biladi va unga ibodat qiladi. Mana shular Nabiyimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam xabar bergan, g'ayb ishlarini tasdiqlashdagi ahli sunna val-jamoaning tutgan yo'lidir. Biz bu xabarlarga ishonamiz va bu voqealarning sodir bo'lishiga guvohlik beramiz.

DAJJOL HOZIR QAYERDA?

Dajjolning tarixi asrlar va zamonlar yangilanishi bilan yangilanib turuvchi qadimiy tarixdir. Shubhasiz, u mal'undir. Barcha payg'ambarlar uni la'natlagan.

Buxoriy rivoyat qilgan hadisda Nabiy sollallohu alayhi va sallam shunday dedilar: "Men sizlarni Dajjoldan ogohlantirganman. Har bir nabiy qavmini undan ogohlantirgan. Nuh ham qavmini undan ogohlantirgan. Lekin men sizlarga, u haqda bironta payg'ambar qavmiga aytmagan so'zni aytaman. Bilib qo'yinglar, Dajjol g'ilaydir. Alloh g'ilay emas". Abu Umoma rivoyat qilgan hadisda Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam odamlarga nido qilib shunday dedilar: "Ey insonlar! Alloh Odam zurriyotini yaratgandan beri, yer yuzida Dajjol fitnasidan ko'ra kattaroq fitna bo'lmagan. Alloh azza va jalla bironta nabiyini yuborgan bo'lsa, albatta, u ummatini Dajjoldan ogohlantirgan. Men nabiyning so'ngisiman. Sizlar eng so'nggi ummatsizlar. Shubhasiz, u sizlarga chiqadi. Agar u men orangizda bo'lgan vaqtda chiqsa, men o'zim har bir musulmon uchun u bilan hujjatlashib (g'olib chiqaman). Agar u, mendan keyin chiqsa, har bir kishi o'zi uchun hujjatlashadi. Alloh mening o'rnimga, har bir musulmonga yordam beradi.-" (Sahih hadis. Izohi yuqorida o'tdi).

Shubhasiz, Dajjol uzoq zamondan beri mavjud. Ulamolarning ehtimoliy gaplariga ko'ra, u Muso alayhissalom davrida ham tirik bo'lgan (Muhammad Iso Dovud. «Al-xuyutul xufya»). Alloh taolo bashariyatni uning yomonlik va musibatlaridan qutqarish uchun Iso alayhissalomni yer yuziga tushirgunicha, u tirik bo'ladi.

Dajjolning bunday uzoq umr ko'rishining siri quyidagicha bo'lishi mumkin. Dajjol, yomonlik, fitna, zalo-lat va makr-hiyla jihatidan iblisga o'xshaydi. Alloh taolo iblis va uning yordamchilariga qiyomatga qadar yashamoq uchun muhlat berganidek, Dajjolga

ham qiyomatga qadar tirik qolishga ruxsat bergan. Zero, Dajjol butparastlar pushti panohi, sigirga sig'inuvchilarning yo'lboshchisidir.

Imom Ahmadning «Musnad»ida Nabiy sollallohu alayhi va sallamdan shunday hadis rivoyat qilingan: «Dajjolning ota-onasi o'ttiz yil farzand ko'rishmaydi. So'ngra ulardan hammaga zarar beruvchi, manfaati oz, g'ilay farzand dunyoga keladi. Uning ko'zi uxlasa ham, qalbi uxlamaydi".

Rivoyat qilinishicha, saxobalardan biri kimsasiz orolda zanjirband etilgan Dajjol bilan uchrashgan. Bu ajoyib va g'aroyib uchrashuvdan Dajjolning chiqishi bilan bosh-lanajak katta fitnadan oldin uning ahvoli qanday ekanini bilishimiz mumkin. Dajjol bilan sahobaning o'rtasida bo'lib o'tgan suhbatdan uning dunyoda ro'y berayotgan ba'zi voqealarni, hattoki Muhammad sollallohu alayhi va sallamning payg'ambar bo'lishi va Madinaga hijrat qilishidan ham xabardor ekani ma'lum bo'ladi. Keling, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bizga xabar bergan bu ta'sirli uchrashuv haqidagi hadisga quloq tutaylik.

Imom Muslim "Sahih" kitoblarida quyidagi hadisni keltirganlar: Omir ibn Shurahbil Sha'biy Zahhok ibn Qaysning singlisi, avvalgi muhojir ayollardan bo'lgan Fotima binti Qaysdan so'radi: "Boshqa birovdan emas, aynan Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning o'zidan eshitgan bironta hadis aytib bersangiz".

Fotima: "Mayli, xohlasang, aytib beraman", deb, quyidagi hadisni aytdi: «Ibn Mug'iyraga turmushga chiqqan edim. U o'sha vaqtdagi Quraysh yigitlarining eng yaxshilaridan edi. Erim Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bilan bo'lgan bir jihodda jarohatlandi. (So'ng meni taloq qildi.) Men beva qoldim. Shunda bir nechta sahoba bilan birga Abdurahmon ibn Avf menga sovchi bo'lib kelishdi. Shu vaqtda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ozod qilgan qullari Usoma ibn Zayd uchun so'rab kelib qoldilar. Men ilgari, Rasulullohning sollallohu alayhi va sallam: "Kim meni yaxshi ko'rsa, Usomani ham yaxshi ko'rsin", deganlarini eshitgan edim. Shuning uchun Rasululloh sollallohu alayhi va sallam menga taklif qilganlarida, «O'zingiz hohlagan kishiga turmushga beravering", dedim. Rasululloh: "Unday bo'lsa, Ummu Sharikning uyiga ko'chib o'tgin", dedilar. Ummu Sharik ansoriy ayol-larning badavlati bo'lib, Alloh yo'lida juda ko'p infoq-ehson qilar, ko'pchilik uning uyiga mehmon bo'lib tushar edn. Men: "Xo'p bo'ladi", dedim. So'ng Rasululloh: "Yo'q, unday qilmay qo'yaqol. Ummu Sharikning mehmoni ko'p. Ro'moling tushib ketishi yoki etagang ko'tarilib, oyog'ing ochilib qolishi, natijada (o'sha yerdagi) kishilar, sen xohlamagan holda badaningta ko'zi tushib qolishini istamayman. Yaxshisi, amakingning o'g'li Abdulloh ibn Umar ibn Ummu Maktumning uyiga boraqol". (U qurayshning Bani Fihr qabilasidan bo'lib, men uning urug'idan edim.)

So'ng uning uyiga ko'chib o'tdim. Idda muddati tugagan kuni Rasulullohning muazzinlari "Jamoat namoziga (kelinglar}", deb nido qilayotganini eshitdim. Masjidga chi-qib, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bilan birga namoz o'qidim. Men erkaklarning ortida turgan ayollar safida edim. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam namozni o'qib bo'lgach, kulib minbarga chiqdilar va «Hech kim joyini tark etmasin", deb aytdilar. So'ngra: "Bilasizlarmi, nima uchun sizlarni (bu yerga) yig'dim?" deb so'radilar. Odamlar: "Alloh va Rasuli bilguvchiroq", deyishdi. Rasululloh: "Allohga qasamki, men sizlarni ixtiyoriy ravishda yig'madim, qo'rqqanimdan ham emas (ya'ni, behudaga yig'madim). To'plaganimning sababi shuki, Tamim ad-Doriy* nasroniy kishi edi. U kelib menga bay'at

berdi va Islomni qabul qildi. So'ngra Masihi Dajjol haqida bir voqeani so'zlab berdi. Uning gaplari men sizlarga aytgan xabarga to'la mos kelyapti. Menga aytipshcha, u (Tamim ad-Doriy) Laxm va Juzom qabilasidan o'ttiz kishi bilan birga kemaga minibdi. To'lqin ularni dengazda bir oy (xas-cho'pdek) o'ynagan. Nihoyat, ular kun botar tarafda, bir orol oldida langar tashlaganlar, qayiq'larga o'tirib, qirg'oq tomon suzganlar va orolga qadam qo'yanlar. Ularning oldiga yunglari o'sib ketgan jonivor kelgan. Yungining ko'pligidan oldi qaysi, orqasi qaysi, bilolmabdilar. "Holingga voy, kimsan o'zi?" deb so'rabdilar. "Men Jassosaman", debdi u. "Nima degani u Jassosa?" deb so'rabdilar yana. Maxluq aytibdi: "Ey qavm, ibodatxonadagi anavi kishining (oldiga) yuringlar. Chunki u sizlarning xabaringazga mushtoq".

Tamim ad-Doriy aytadi: "Maxluq bizga ibodatxonadagi kishini ta'riflab bergan edi, maxluqdan shayton emasmikan", deb cho'chidik. Tez yurib, ibodatxonaga kirdik. Qarasak, ikki qo'li bo'yniga bog'langan, tizzasidan to'pig'igacha temir bilan kishanlangan juda bahaybat odamni ko'rdik. Biz undan: "Holingga voy bo'lsin, sen kimsan?" deb so'radik. U aytdi: "Mening xabarimni bildingiz Menga aytinglarchn, sizlar kimsiz o'zi?" "Biz arablarmiz. Kemaga mingan edik. (Safarimiz) dengizda dovul bo'lgan vaqtga to'g'ri kelib qoldi. To'lqin bizni bir oy (xas-cho'pdek) o'ynadi. So'ngra mana bu orol yaqiniga langar tashladik. Qayiq'larga o'tirib (qirg'oq tomon suzdik) va orolga chiqdik. Shu vaqt, yungining ko'pligidan na oldi va na orqasi bilinadigan jonivor oldimizga keldi. "Holingga voy, kimsan o'zi?" deb so'radik. U: "Men Jassosaman", dedi. Biz: "Jassosa nima degani?" deb so'radik yana. U: "Ibodatxonadagi anavi kishining (oldiga) boringlar. U sizlarning xabaringizga mushtoq", dedi. Keyin sening oldinga tezda keldik. Maxluqni shayton emasmikan, deb cho'chidik». Shunda bahaybat kishi dedi: "Bayson (falastindagi shahar) xurmozori haqida menga xabar beringlar". Biz aytdik: "Uning nimasi haqida so'rayapsan?" U: "Uning xurmolari haqida so'rayapman. Meva beryaptimi?" dedi. Biz: "Ha", dedik. "Yaqinda, u meva bermay qo'yadi, -dedi u. Keyin aytdi: - Endi menga Tabariya ko'li (Baytul Maqdis atrofidagi ko'l) haqida xabar beringlar». "Uning nimasini so'rayapsan?" dedik.

"Unda suv ko'pmi?"

"Ha. Uning suvi ko'p".

«U ko'lining suvi (oz muddatdan keyin) quriy boshlaydi, — dedi va yana aytdi: — Endi menga Zug'ar (Shomdagi shahar) bulog'i haqida xabar beringlar». "Uning nimasini so'rayapsan?" dedik biz. U: "Buloqda suv bormi? Odamlar ekiklarini buloq suvi bilan sug'oryaptimi?" deb so'radi. Biz: "Ha. Buloqning suvi ko'p. Aholi ham ekinlarini buloq suvi bilan sug'oryapti", dedik.

U keyin: "Omilarning payg'ambari haqida menga xabar beringlarchi? U nima ishlar qildi?" deb so'radi. Biz: "U payg'ambar Makkadan chiqdi va Yasrib (Madina)ga ko'chib o'tdi", dedik. U: "Arablar unga qarshi jang qildilarmi?" deb so'radi so'ngra. Biz: "Ha". dedik. "U arablar bilan qanday (yo'l tutdi) ?" deb savol berdi keyin. Biz unga: "Payg'ambar atrofdagi arablardan g'olib keldi. Oqibatda hammalari unga bo'yinsundilar", deb javob berdik. U: "Shunday bo'ldimi?" deya ta'kidlab so'radi Biz: "Ha" dedik. "Albatta, arablar unga itoat qilsalar o'zlari uchun yaxshi bo'ladi, - dedi u. So'ng shunday deb qo'shib qo'ydi: - Endi men sizlarga o'zim haqimda xabar beraman. Men Masih Dajjolman. Yaqinda menga chiqish uchun ruxsat beriladi va men chiqaman. Men yer yuzini qirq kecha-kunduz ichida aylanib chiqaman. Makka va Tiybadan tashqari bironta qishloq, shaharni qoldirmay kiraman. Bu ikki shaxarga (kirshp) menga harom qilingan. Ulardan biriga kirmoqchi bo'lsam, bir farishta qo'lida yalang'ochlangan qilich bilan

peshvoz chiqib, meni to'sadi. Makka va Tiybaning har bir tepaligida farishtalar ularning hududini qo'riqlab turadi".

(Hadis roviyi) Fotima binti Qays aytadi: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam asolari bilan minbarlariga ishora qilib, "Tiyba, mana shu bo'ladi, Tiyba, mana pgu bo'ladi", deb (Madinani) aytdilar. Keyin shunday dedilar: "Ogoh bo'linglar, men sizlarga bu haqda xabar bergan edimmi?» Odamlar: "Ha" deb javob berdilar. Rasululloh aytdilar: "Men sizlarga Dajjol haqida, Makka va Madina haqida aytgan gaplarim Tamimning xabariga to'liq mos kelsshi meni ajablantirdi. Bilib qo'yinglar, Dajjol Shom yoki Yaman dengazida. Yo'q, u mashriq tarafdin (chiqadi). Ha, u mashriqdan (keladi), mashriqdan (keladi)». Qo'llari bilan mashriqqa ishora qildilar. Men Rasulullohdan mana shu so'zlarni yodimda saqlab qolganman", dedi Fotima binti Qays («Sahih Muslim»).

E'tiborli joyi shundaki, Dajjolning nomi Qur'onda ochiq-oydin kelmagan. Haqiqatda, nima uchun u zikr qilinmagan? Albatta, bu mulohazada jon bor. Lekin Alloh Dajjolni e'tiborga olmagan, uning ishini nazar-pisand qilmagan uchun bu pastkashning nomini Qur'oni Karimda zikr qilmasligi, ehtimol, mo'minlarning qalbiga xotirjamlik baxsh etar. Chunki, u haqiqatda zaif, haqir va aldoqchi. U: "Men ibodatga loyiq ilohman", deb odamlarni aldaydi.

Ibn Kasir aytadi: "Dajjolning o'zi da'vo qilayotgan rububiyat maqomiga nisbatan nuqsonli ekani aniq va ravshandir. Alloh uning nomini Kalomida zikr qilmaganining sababi shuki, bu narsa, ya'ni, Dajjol nomi Qur'onda aytilmasligi ham mo'min bandalarga iymonni, Alloh va rasuliga taslim bo'lishni ziyoda qilishini bilgani uchundir»

Qur'on Dajjolni oshkora zikr qilmadi, balki unga ishora qilib o'tdi.

لَخَلَقُ السَّمَوَاتِ وَالْأَرْضِ أَكْبَرُ مِنْ خَلْقِ النَّاسِ وَلَكِنَّ أَكْثَرَ النَّاسِ لَا يَعْلَمُونَ ﴿٥٧﴾

"Shak-shubhasiz osmonlar va yerni yaratish insonlarni yaratishdan kattaroq (ish)dir. Lekin ko'p odamlar bilmaydilar" (G'ofir, 57), oyatining sharhida imom Bag'aviy aytdilar: "Oyatdagi insonlardan murod Dajjoldir. Bu "ozchilik o'rniga ko'pchilikni ishlatish" qoidasidir». Ba'zilar: "Alloh taoloning ushbu:

هَلْ يَنْظُرُونَ إِلَّا أَنْ تَأْتِيَهُمُ الْمَلَائِكَةُ أَوْ يَأْتِيَ رَبُّكَ أَوْ يَأْتِيَ بَعْضُ آيَاتِ رَبِّكَ يَوْمَ يَأْتِي بَعْضُ آيَاتِ رَبِّكَ لَا يَنْفَعُ نَفْسًا إِيْمَانُهَا لَمْ تَكُنْ ءَامِنْتَ مِنْ قَبْلُ أَوْ كَسَبَتْ فِي إِيمَانِهَا خَيْرًا قُلِ انْتَضِرُوا

إِنَّا مُنْتَظِرُونَ ﴿١٥٨﴾

"Parvardigoringizning ayrim oyat-alomatlari keladigan kunda esa ilgari iymon keltirmagan yokn iymonida yaxshilik kasb qilmagan biron jonga (endi keltirgan iymoni) foyda bermas..." (An'om, 158) oyatida ham Dajjolga ishora qilingan", deyishadi.

Bu oyatni, Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning quyidagi hadislari sharhlaydi: "Agar

uchta oyat-alomat chiqsa, ilgari iymon keltirmagan yoki iymonida yaxshilik kasb qilmagan biron jonga (endi keltirgan iymoni) foyda bermas. Ular — Dajjol, yer hayvoni va quyoshning mag'ribdan chiqishi" (Sahih hadis. Muslim rivoyati).

Yana Ibn Kasir aytadi: "Dajjol uluhiyatni da'vo qilgani sababli, Alloh uni kamsitib, Qur'onda ismini oshkora zikr qilmadi. Uning ishi Rabbul olamiyn nazdida eslashga arzimaydi. Uning da'vosini hikoya qilish eng haqir va kichik narsadir".

Biz esa, Nabiyimiz sollallohu alayhi va sallam o'z hadisi shariflarida Dajjolning chiqishini ta'kidlaganlariga, uning fitnasidan ogohlantirganlariga ishora qilib o'tmoqchimiz. Zero, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam namozlarining oxirida, tashahhuddan keyin Dajjolning yomonligidan panoh tilashni doimiy odat qilganlarining o'zi bizga kifoya.

Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: "Rasululloh sollallohu alayhi va sallam shunday deb duo qilar edilar: "Allohim! Men Sendan dangasalikdan, qarib-qartayishdan, gunohdan, qarzdor bo'lishdan qabr fitnasi va qabr azobidan, do'zax fitnasi va do'zax azobidan, boylik fitnasidan panoh so'rayman. Men Sendan yana faqirlik fitnasidan panoh berishingna, Masivd Dajjol fitnasidan omon saqlashingni so'rayman. Allohim! Mening xatolarimni suv, qor va do'l bilan yuvgin. Oq kiyim kirdan tozalangani kabi qalbimni ham xatolardan tozalagin. Mashriq bilan mag'rib orasini uzoqlashtirganing kabi men bilan xatolarim o'rtasini uzokdashtirgin" (Sahih hadis. Muslim, Abu Dovud, Termiziy, Ibn Moja rivoyati).

XULOSA

Dajjol barcha payg'ambarlar tilga olgai g'ayb haqiqatlaridan biri bo'lib, uning surati bizga ma'lum. Uni sifatlagan sahih hadislarni ktobimizda keltirdik. Shubhasiz, Dajjol katta imkoniyatlarga ega bo'ladi. Hattoki, u o'z zamonasining ilg'or texnologiyasidan ham foydalanadi. Albatta, uning davriga kelib texnologiya yanada rivojlanib, tarakkiy etgan bo'ladi. Ba'zilarning aytishiga ko'ra, o'n to'qqizinchi asrga kelib fanga ma'lum bo'lgan "Uchar likopchalar"ni boshqarayotganlar ham Masihi Dajjolning lashkarlari emish. Uchar likopchalar esa, hadislarda bayon qilingan Dajjoliing tez yurar ulovi emish. Albatta, bular dalil-hujjatga asoslanmagai gaplar, xolos. Lekin qanday vosita bilan bo'lishidan kat'iy na-zar, u g'ayrioddiy tezlik bilan harakatlanishi xadislarda vorid bo'lgan.

Rasulullohdan: "Dajjolning tezligi qanday deb so'rashganida, u zot shunday javob berganlar: "Yer unga qo'chqorning terisi o'ralgandek o'raladi (ya'ni, uzog'i qisqa bo'ladi)".

Boshqa hadisda: "Uning tezligi shamol xaydayotgan yomg'ir kabidir, deyilgan. Nuvos ibn Sam'on rivoyat qilgan hadisda aytiladi: "Ey Rasululloh, uning yerdagi tezligi qanday?" deb so'radik. "Shamol haydayotgan yomg'ir kabi", deb javob berdilar. Hadisning sharhlovchilara shunday deydilar: «Hadisdagi "yomg'ir" so'zidan aslida bulut nazarda tutilgan. Shunga binoan xadisning ma'nosi quyidagicha bo'ladi: "U yer yuzida kuchli shamol haydayotgan bulut kabi harakat qiladi".

Ehtimol, Dajjolning tezligini bulutga o'xshatish zamirida uning tabiatga Alloh tarafidan berilgan kuchlardan foydalanishi mumkinligini bildiradi.

Termiziy rivoyat qilgan hadisda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam shunday deydilar: "Dajjolga yuzlari teri qoplangai sovutga o'xshash kavmlar ergashadi". Ya'ni, ular janglarda, ko'pincha, dushman zarbasidan saqlovchi dubulg'a kiyib oladilar.

Shuningdek, sharqiy Osiyo xalqlarining yuzlari yapaloq, yonoqlari sovutga o'xshab bo'rtib chiqqan. Ular hozirgi kunda tez suratlarda rivojlanib bormoqdalar. Bu taraqqiyot esa dabdaba, isrof va turli xil ma'siyatlarning ildiz otishiga sabab bo'lyapti. Zero, Dajjolning chiqishi xam mana shunday fasodning keng tarqalish vaqtiga to'g'ri keladi. Alloh taolo aytadi: "... hatto yer chiroy olib, yasan-tusan qilganida va yerning ahli unga (ya'ni, yerni qoplagan ekin-tekinlarni o'rib-yanchib olishga) kodirmiz, deb o'ylay boshlaganida, yerga kechasi yo kunduzi Bizning farmonimiz kelib, Biz uni go'yo kuni-kecha obod bo'lmaganidek «o'rib» (vayronaga aylantirib) qo'yurmiz..." (Yunus, 24). Nima bo'lishidan qat'iy nazar, Dajjolning lashkari mag'lubiyatga uchraganida, IsoMasih uni o'ldirmoqchi bo'lganida unga kuch-kudrati ham foyda bermay qoladi.

Muhimi, Dajjolning chiqishi qiyomatning katta alomatlaridan biri va bu alomat ko'ra dunyoning umri nihoyasiga yetayotganining darakchisi ekanini bilishimizdir. Albatta, bu bosqich bilai qiyomat qoim bo'lishi orasida o'nlab, balki yuzlab yillar o'tishi mumkin. So'zimizning nihoyasida ta'kidlab o'tmoqchimizki, suyukli nabiyimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam kazzob Dajjolga qarshi bizga bergan qurol bilan qurolanishimiz qoldi, xolos. Nabiy sollallohu alayhi va sallam shunday deganlar: "Sizlardan bironta kishi Dajjolga yo'liqsa, unga Kahf surasining avvalini o'qisin" (Muslim, Termiziy rivoyati).

Hazrati Sayyidimiz yana shunday deydilar: "Sizlardan bironta kishi Dajjolga duch kelsa, uning yuziga tupirsin va Kahf surasining avvalini o'qisin" (Tabaroniy rivoyati).

Allohdan Masihi Dajjol fitnasidan panoh berishini so'raymiz. Tavfiq Undan. Nabiyimiz Muhammadga, sahobalariga va oila-a'zolariga Allohning rahmati va salomi bo'lsin.

Onlineda o'qish: <http://forum.ziyouz.com/index.php?topic=1020.0>
Internet uchun **Muslima** tayyorlagan.

www.ziyouz.com
2007